

SHAVKAT BUXOROIY SHE'RIYATINING USLUBI VA BADIYATI

Muhammad Is'hoq Shavkat Buxoroiy XVII asr shoirlaridan biri bo'lib, u nafaqat mumtoz she'riyatda hind uslubining shakllanishiga, balki fors-tojik va turkiy adabiyot rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

Ushbu monografiya asosan filologiya fakulteti talabalari, umumta'lim maktablarining til va adabiyot o'qituvchilari hamda ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan. Monografiyada Shavkat Buxoroiyning ibratli hayot yo'li va ijodi, shoirning hind uslubidagi pozitsiyasi, ijodkor g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlili va talqini haqida so'z boradi.



To'xsanov Q. R. 1991 yildan buyon Buxoro davlat universitetida faoliyat ko'rsatadi. Filologif fanlari doktori (DSc) BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи professori (2023 yil 1.04).

Rahimboyeva S. Q., malumotim – oliy 2011–2015 – yillarda Buxoro davlat universiteti Tarix fakulteti yonalishi boyicha bakalavrda tahsil olgan.



Globe
EDIT

Monografiya

FOR AUTHOR USE

Qahramon To'xsanov, Sitorabonu Rahimboyeva



Qahramon To'xsanov · Sitorabonu Rahimboyeva

SHAVKAT BUXOROIY SHE'RIYATINING USLUBI VA BADIYATI

Monografiya

Globe
EDIT

**Qahramon To'xsanov
Sitorabonu Rahimboyeva**

SHAVKAT BUXOROIY SHE'RIYATINING USLUBI VA BADIYATI

FOR AUTHOR USE ONLY

Qahramon To'xsanov
Sitorabonu Rahimboyeva

**SHAVKAT BUXOROIY
SHE'RIYATINING USLUBI VA
BADIYATI**

Monografiya

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-6-80183-2

Copyright © Qahramon To'xsanov, Sitorabonu Rahimboyeva

Copyright © 2024 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**QAHRAMON TO'XSANOV
SITORABONU RAHIMBOYEVA**

SHAVKAT BUXOROIY SHE'RIYATINING USLUBI VA BADIYATI

FOR AUTHOR USE ONLY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QAHRAMON TO'XSANOV
SITORABONU RAHIMBOYEVA

SHAVKAT BUXOROIY SHE'RIYATINING USLUBI VA BADIYATI

UO'K 821.82:21/29

Qahramon, To‘xsanov, Sitorabonus Rahimboyeva

Shavkat Buxoroiy she’riyatining uslubi va badiiyati / Q.To‘xsanov, S.Rahimboyeva; Buxoro: 2024. – 140 b.

Muhammad Is’hoq Shavkat Buxoroiy XVII asr shoirlaridan biri bo‘lib, u nafaqat mumtoz she’riyatda hind uslubining shakllanishiga, balki fors-tojik va turkiy adabiyot rivojiga ham katta hissa qo‘shgan.

Ushbu monografiya asosan filologiya fakulteti talabalari, umumta’lim maktablarining til va adabiyot o‘qituvchilari hamda ilmiy xodimlar uchun mo‘ljallangan. Monografiyada Shavkat Buxoroiyning ibratli hayot yo‘li va ijodi, shoirning hind uslubidagi pozitsiyasi, ijodkor g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlili va talqini haqida so‘z boradi.

Mas’ul muharrir:

Rahim Vohidov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Husniddin Eshonquloy, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yunus Azimov, filologiya fanlari nomzodi, professor

KIRISH

“Shavkat Buxoroiy shunday bir yulduz ediki,
Usmoniy shoirlariga yarim asrdan ko‘p rahnamolik qildi”
Turkiy adabiyot tadqiqotchisi E.Gibb

Buxoro adabiy muhiti muysafid va Sharif shaharning o‘zi qadar qadimiydir. Oradan kechgan 2500 yillik tarix davomida bu muqaddas zaminda jahon ma’naviy-ma’rifiy tafakkuri, tashakkuli va taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘sha olgan minglab buyuk donishmandlar, shoir-u fuzalolar yashab, o‘zlaridan boy ilmiy-adabiy meros qoldirdilar. Buxoroi Sharif baynalmilal voha bo‘lgani kabi bu mo‘tabar yurtda bunyod qilingan ilmiy-adabiy meros ham ko‘p tillidir. Ulug‘ ajdodlarimiz o‘zlarining o‘zbek, tojik va arab tillarida yaratilgan asarlari bilan bashariyat madaniy-ilmiy xazinasiga munosib hissa qo‘sib keldilar. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov g‘oyat o‘rinli ta‘kidlaganidek: “Biz uchun Turon – mintaqadagi turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning o‘ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bundan tashqari, umumiy madaniy, tarixiy va antropologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o‘z madaniyatimizni Markaziy Osiyo uchun ma’lum darajada noyob bo‘lgan turk va fors madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to‘la huquq beradi¹. Birinchi yurtboshimizning bu asosli fikrlari Buxoro adabiy muhiti uchun ham to‘la taalluqlidir. Chunki asrlar davomida bu sarzaminda faoliyat ko‘rsatgan ilm-u adab namoyandalari o‘z asarlarini ko‘proq ikki: o‘zbek-tojik va ba’zan arab tilida ham yaratdilar. Ana shu zaylda Buxoroi Sharifda zullisonaynlik an’anasi shakllanib, taraqqiy topdi va muborak bu yurtning zakovatlari farzandlari o‘z asarlarini bilan ikki xalq, ikki adabiyot manfaati yo‘lida xizmat qildilar. Ta’kidlash joizki, tab’ ahlining ma’lum qismi ko‘proq o‘zbek va ozroq tojik tilida, boshqa guruhi esa asosiy asarlarini tojik lisonida va ba’zan o‘zbekchada ham ijod qilganlar. Mazkur

¹ И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 143-бет.

hodisaning raviyalari sifatida shiru shakar (ikki til aralashmasi), shiru shahdu shakar (uch til)da asarlar yaratish an'anasi amal qilib keldi.

Buxoro adabiy muhit, jumladan XVII-XIX asrlar adabiyotining bunday o'ziga xos xususiyatlari, ayrim vakillarining ijod yo'li, merosi tojik-u o'zbek adabiyotshunoslari e'tiborini tortgan va talaygina tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, S.Ayniy, V.Abdullayev, A.Mirzoev, R.Hodizoda, N.Ma'sumiy, X.Mirzozoda, S.Sa'diyev, R.Orzibekov, A.Abdurahmonov, U.Karimov, T.Ne'matzoda, R.Vohidov, S.Siddiqov, T.Qorayev va boshqalarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin². Biroq qayd qilingan ushbu ishlarda XVII-XIX asrlarda Buxoroda yaratilgan boy adabiyot va uning yetuk namoyandalari ijodining hamma jabhalari ham o'zining yetarli ilmiy yechimini topgan deb bo'lmaydi. Ana shunday dolzarb mavzulardan biri, shubhasiz, Shavkat Buxoroiy adabiy merosining har tomonlama va istiqlol mafkurasi tamoyillariga mos tahlilidir. Nozim Hirotiy (1601-1671), Soyib Tabreziy (1603-1677), Tolib Omuliy (1580-1627), Abutolib Koshoniy (vafoti 1695), Boborahim Mashrab (1640-1711) kabi iste'dodli so'z san'atkoriqlari bilan bir davrda va hammaslaklikda qalam tebratgan Shavkat Buxoroiy o'zining rangin she'riyati bilan nafaqat Buxoro, balki Hind-u Afg'on, Eron-u Turkiyada ham shuhrat qozondi, muxlis va izdoshlarini topa oldi. Bu zabardast tab' sohibi salohiyati, uning sehrli qalami tuhfa qilgan dilbar she'riyatning nazokati xususida Maleho Samarqandiying "Muzakkir ul-as'hob", Mirzo Muhammad Tohir Nasrobodiying "Tazkirai Nasrobodiy", Muhammad Haziyning "Tazkiran ushshuaro", G'ulomalixon Ozodi Bilgiromiyyuning "Xizonai omira", Shamsuddin

² Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – М.: Наука, 1926; В.Абдуллаев. Сайланма. (Адабий-танқидий мақолалар). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 440 б. яна: Толиб Толибий //Фан ва турмуш. 1954. 4-сон, 22-24-бет.; Мирзоев А. Сайидо ва макоми ў дар таърихи адабиёти тоҷик. – Сталиnobод: Нашриёти давлатни Тоҷикистон, 1947. – 197 с.; Ҳодизода Р. Шоҳин. (тадқика нав дар ҳаёт ва эҷодиёти шоир). – Душанбе: Дониш, 1974; Маъсумий Н. Забон ва услуби Аҳмади Дониш. – Душанбе: Дониш, 1976; Каримов У. Мирзо Содики Мунший. – Душанбе: Дониш, 1972. – 168 с.; Мирзозода Х. Шамсиддин Шоҳин. – Сталиnobод: Нашрдавтоҷик, 1965; Незъматзода Т. Возех. – Душанбе: Ироғон, 1964; Сайдиев С. Адабиёти тоҷик дар асрҳо XVII. – Душанбе: Дониш, 1985. – 268 с.; Арзибеков Р. Поэт Шаки Каттакургани и его литературная среда. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Самарканд, 1963. – 32 с.; Абдурахмонов М. XVII аср оҳирни ва XIX асрнинг бошларида Бухорода ўзбек адабиёти тарихидан. Филол. фан. ном. дисс. – Самарканд, 1965. – 95-115-бетлар.; Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994. – 149-159-бетлар.; Сиддиков С. Тазкирии Садри Зиёд // Садон Шарқ, ш 1, 1966; Қораев Т. Ҳиромий. – Тошкент: Фан, 1977.

Somiyning "Qomus ul-a'lom", Husaynqulixon Azimobodiyning "Nashtari ishq", Rizoqulixon Hidoyatning "Riyoz ul-orifin", Sadriddin Ayniyining "Namunai adabiyoti tojik", Shibliy Nu'moniyning "She'r ul-ajam" asarlarida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

Shavkat Buxoroiy shaxsiyati va ma'naviy merosiga oid noyob mulohazalar Fitrat Zardo'zi Samarcandiyning "Tolib va Matlub", Noseh Xatloniyning "Majlisafro'z" masnaviylarida ham ko'zga tashlanadi. Zabardast shoirning ma'naviy merosi bugungi adabiyotshunoslar e'tiboridan ham chetda qolgan emas³.

Biroq na o'tmish mualliflari va na bugungi adabiyotshunoslar Shavkat Buxoroiy tarjimayi holi, adabiy merosi mundarijasi hamda badiiy mahorati muammolarini yaxlit holida tadqiq qilishni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ygan emas. Tojik va o'zbek adabiyotshunoslida maxsus ilmiy talqinini kutayotgan ana shu mavzuning ilk bor jiddiy ilmiy tadqiqot manbai sifatida tanlanishi, mustaqillik mafkurasi mezon va tamoyillari asosida o'rganilishi tadqiqotning dolzarbligidan dalolatdir.

Har bir adabiyot o'zining milliy manbalari asosida kamol topadi va boyib boradi. Uning serqirra va bepoyon olamini mukammal kashf etish uchun shu adabiyot namoyandalari ijodining g'oyalar dunyosi, uslubi va badiiy-tasviriy vositalardan nechog'lik foydalana olish mahoratini tadqiq etish ahamiyatga molikdir.

Monografiyada izlanishlarimizning asosiy manbai sifatida Shavkat Buxoroiy devonlarining Tojikiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qo'lyozmalar bo'limi xazinasida saqlanayotgan 499, 2443, 870 hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida

³ Ризаев З. Шавкат Бухорий. – Тошкент, 1961. – 26 б.; Шавкати Бухорий. Ашъори мунтхаб. – Душабе: Дониш, 1968. – 149 с.; Ризаев З. Индийский стиль в поэзии на фарси конца XVI-XVII вв. – Ташкент: Фан. 1971. – 218 с.; Саъдиев С. Адабиёти тоҷик дар асри XVII. – Душанбе: Дониш, 1986. – 268 с.; Шавкати Бухорий. Нури аср. – Душанбе: Ирфон, 1986. – 288 с.; Шавкати Бухорий. Девони ашъор. Матни иший-интиқодӣ. – Душанбе: Дониш, 1987. – 634 с.; Ходизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тоҷик. Асрҳои XVI-XIX ва ибтидои асри XX. – Душанбе: Маориф, 1988. – 414 с.; Шавкат Самаркандинӣ. Тадқикиоти перомуни ахвол ва осори Шавкати Бухорий//Филология, тадқикотлар, 2-китоб. – Самарканҷ, 1996. – 68-96-бетлар.

mayjud 141/11, 6929, 11439, 7720, 998, 10096, 868, 6077, 1104, 91, 1124, 138, 982 raqamli nusxalari, shuningdek, shoir she'rlarining ilmiy-tanqidiy (Dushanbe, 1987) va ommaviy nashrlari tanlandi. Ilmiy kuzatishlarimiz talabiga ko'ra Urfiy Sheraziy, Soyib Tabreziy, Nosirali Sarhindiy, Kalim Koshoniy va Tolib Omuliy kabi "sabki hindiy"da muvaffaqiyatli qalam tebratgan shoirlarning asarlariga ham murojaat qilindi.

Monografiyani yozishda ilmiy izlanishlarimizning metodologik asosini istiqlol mafkurasi g'oyalari, o'tmishda Sharqda yaratilgan she'rshunoslikka doir nazariy asarlar, o'zbek, tojik hamda qardosh xalqlar adabiyotshunoslarning adabiyot tarixi, nazariyasi va qiyosiy-tipologik tahlilga doir tadqiqotlari tashkil etadi. Shuningdek, Shavkat Buxoroiy hayot yo'li manbalarini yoritishda hamda shoir she'riyatining uslub va badiiyat jilolarini ochib berishda S.Ayniy, Y.Bertels, V.Abdullaev, A.Mirzoyev M.Shukurov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, B.Valixo'jaev, R.Hodizoda, A.Afsahzod, S.Erkinov, A.Abdug'afov, S.Sa'diyev, Sh.Shukurov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Homidov, Z.Rizayevlarning tadqiqotlariga ham murojaat qildik.

Mazkur monografiya Shavkat Buxoroiy hayoti va ijodi tahliliga bag'ishlangan birinchi maxsus ilmiy-filologik tadqiqotdir. Unda ilk marta o'tmish va bugungi adabiyotshunos hamda sharqshunoslarning mulohaza-yu ma'lumotlari jamlandi va qiyosiy tahlil qilinib, xolisona ilmiy xulosalarga kelindi. Monografiyada Shavkat Buxoroiyning shaxsiyati, avlod-u ajdodlari, Buxorodan chiqib ketish sabablari, taxalluslari, zamondosh-u maslakdoshlari va ma'nnaviy merosining mundarijasini aniqlashga harakat qilindi. Bizgacha Shavkat Buxoroiy devonlarining o'n beshga yaqin qo'lyozma nusxalari yetib kelgan. Ular Toshkent, Dushanbe va Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari xazinalarida saqlanmoqda. Monografiyada o'sha nusxalarni qiyosiy o'rganish orqali yigirmadan ziyod g'azallarning zabardast shoir asarlari ilmiy tanqidiy nashridan tushib qolganligini aniqlashga tuyassar bo'ldik. Ishda ilk bor shoir ma'nnaviy merosi janrlar, mavzu va g'oyalar nuqtayi nazaridan tasnif hamda tahlil qilindi. Shavkat Buxoroiyning

Boborahim Mashrab bilan adabiy aloqasi, shoirning “sabki hindiy”ga munosabati va ushbu uslubning o‘z ijodida shakllanishiga doir mulohazalari haqida ham imkoniyat darajasida fikr yuritildi.

Monografiyada hind uslubining (“sabki hindiy”) yuzaga kelish tarixiga nazar solinib, uning ildizlari mantiqan X-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ijod etilgan falsafiy qasidalarga borib taqlishi haqidagi mulohaza o‘rtaga tashlangan. Bu bilan sharqshunoslikda hind uslubi istilohi bilan shuhrat topgan bu adabiy hodisa faqat Hindiston adabiy muhitigagina aloqador bo‘lmay, balki bu jarayon Xuroson, xususan, Movarounnahr adabiy havzalarida mavjud asarlar, falsafiy qasidalar bag‘rida shakllanganligi ham qayd etilgan.

ZAMON, ADABIY MUHIT, SHOIR HAYOTI VA ADABIY MEROSSI

Shoир yashagan davr

Shavkat Buxoroiy hayoti taxt va toj o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, hukmron tabaqalarning zulmi va eksplutatsiyasi kuchaygan XVII asrning 20-yillaridan to XVIII asr oxirigacha bo‘lgan eng notinch davrni qamrab oladi. “Movarunnahr va Xuroson tarixi”da bu davrdagi mehnatkash xalqning nihoyatda og‘ir va chidab bo‘lmas turmush sharoiti aks ettirilgan. Shu bois, Shavkat Buxoroiy maqomi haqida gapirishdan avval shoир yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida bir necha so‘z aytishni lozim topdik. Bizningcha, shoир mansub davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini bilmay turib, uning hayot yo‘li haqida gapirish, chuqur xulosalar chiqarish mumkin emas.

Bu davrda Eron va Xurosonda Ashtarkoniý xonlari va Safaviy podshohlari hukmronlik qildilar. Imom Qulixon Ashtarkoniý (1611-1642) davrida Movarounnahrda vujudga kelgan nisbiy tinchlik, iqtisodiy hayot va savdo munosabatlarining rivojlanishi uzoq davom etmadı. Imom Qulixon vafotidan so‘ng ashtarkoniylar sulolası harakatining kuchayishi natijasida xonlik markaziy hukumati tarafdorlari va alohida feodallar o‘rtasidagi ziddiyat va qo‘zg‘olonlari, feodallarning o‘z kuchini oshirishga urinishlari, mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Aholining, mehnatkash xalqning turmush sharoiti yanada og‘ir va dahshatli bo‘ldi. Xorazmiylar ashtarkoniylarning bu ichki nizolaridan foydalaniib, Movarunnahrning markaziy vohalariga tinimsiz bostirib kirganlar. Xorazmliklarning Buxoroga doimiy hujumlari faqat talonchilik maqsadida bo‘lib, uy-joylar vayron qilingan, tinch aholi o‘ldirilgan. Bu kutilmagan ofatdan Shavkat Buxoroiy ham chetda qolmadi. Zamon zulmidan faryod qildi, sabri to‘lib ketdi, do‘konı talon-taroj bo‘lgach, Vatandan ketishga majbur bo‘ldi. Manbalarga ko‘ra, Xorazm xoni Abdulg‘ozixon Urganjiy turkmanlarni o‘zi bilan Buxoroga olib kelgan. Abdug‘ani Mirzoyevning ma’lumotlariga ko‘ra, Abdulg‘ozixon 18 marta

o‘z lashkari bilan Buxoroga hujum qilib, shahar va uning atrofidagi aholi turmushiga jiddiy zarar yetkazgan (108:5, 112:11). Xorazmliklar Buxoroga hujum qilib, hukumatning kuchsizlanishi natijasida Hindiston temuriylari vakili Shohi Jahon (1628-1659) Balx va Afg‘onistonning shimoliy qismini osonlik bilan egalladi. Bu holat Ashtarkoniylar davlatining siyosiy va iqtisodiy salohiyatini butunlay zaiflashtirib, xazinani bo‘sh qilib qo‘ydi, mamlakat iqtisodiyotining vayron bo‘lish jarayonini yanada tezlashtirdi. Bu shafqatsiz qon to‘kish va taxtga intilishning boshida Nodir Muhammadxon (1594-1651)ning o‘g‘li Abdulazizxon (hokimiyatni 1645-1681-yillarda boshqargan) turardi. Uning hukmronligi davrida mamlakatda talonchilik, qotillik va poraxo‘rlik avj oldi. Nihoyat, mamlakat ahvoli shu darajaga yetdiki, keksa Abdulaziz endi mamlakat tinchligini ta’minlay olmay, xonlik toji va taxtini xuddi otasi kabi Subhonqulixonga topshirdi va Makkaga ketdi (112:11). Subhonqulixon (hokimiyatni 1681-1702-yillarda boshqargan) mavjud og‘ir vaziyatni to‘liq bartaraf eta olmadи, aksincha, ahvol yanada og‘irlashdi. “Дар он замоне, ки Субҳонкулихон ба таҳт нишаст - мегўяд Муҳаммадбадеъ Малеҳои Самарқандӣ - арбоби мансабро ҳоле даст дод, ки ба чиҳати ҷузве пояйи иззат ба умаро ва мукаррабони хон маблағҳои куллӣ пора медоданд, то соҳиби номе мешуданд. Шуғли ин воқеа ба наве шуд, ки қарзҳо ба суд мекарданд, то мансабе ба даст меовардаанд. Андак фурсат ва замоне намегузашт, дигаре ришва дода он мансабро мегирифт... ва хеч қасро огоҳии дилсардӣ набуд ва ҳама саргармии ин воқеа буданд⁴” (66:13) Subhonqulixon tomonidan amalga oshirilgan siyosat zulm va ekspluatatsiyani kuchayishiga, mehnatkash tabaqaning zaiflashib, boshpanasiz qolishiga olib keldi. Ularning aksariyati darveshlar hayotiga – tilanchilikka aralashib ketdi. Bu holat davr madaniy va adabiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muhammad Is’hoq Shavkat Buxoroiy, taxminan 1676-1677-yillar Buxorodan Eronga hijrat qilgan. Lekin Safaviylar va ularning hokimlari

⁴ Monografiyada fors-tojik tilidagi manbadan olingan iqtibos, Shavkat Buxoroiy qalamiga mansub g’azallar va ilovalar qismidagi ayrim ma’lumotlar asliyatdagi kabi fors-tojik tilida yozildi.

hukmronlik qilgan bu davrdagi Eron va Xurosonning ahvoli ko‘p jihatdan Ashtarxoniyalar davridagi Movarounnahr hayotiga o‘xhash edi. Shoh Safaviy (1629-1642) tomonidan olib borilgan siyosat Safaviylar davlati qudratining zaiflashishiga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishdan ortda qolishiga olib keladi, bu birinchi marta Shoh Abbosiy davrida kuzatilgan. Bu holat shoh Abbos va podshoh Sulaymon davrida ham davom etadi va Safaviylar davlati siyosiy va iqtisodiy inqirozga yuz tutadi. Shoh Safaviy hukmronligining oxirida Xurosonlik Beglarbegi Shomlulik Hasanxon vafot etadi va uning o‘g‘li Abbos Qulixon hokim etib tayinlanadi. Shunday qilib, Manuchehraxon, Abbasqulixon va Safiqqulixonlar davrida Xuroson og‘ir ahvolni boshidan kechiradi. Bu og‘ir va beqaror holatni shu davrning yetuk shoirlari Nozim Hirotiy, Saaduddin Rahim, Behchat Iroqiy, Robea Badaxshoniy, Mirzo Soibi Isfahoniy va boshqalar ijodida ko‘rish mumkin. Shoh Abbos davrida Safaviylar davlati bilan Ashtarxoniy xonlari o‘rtasidagi munosabatlar ma’lum darajada yaxshilangan bo‘lsa-da, Xurosonda shaxsiy adovatlar davom etgan. Bu xunrezliklar, xonlarning umidsiz janglari natijasida mazlum xalq tinimsiz mashaqqatlarga duchor bo‘ldi. Shoh Sulaymon hukmronligi Safaviylar davlatining qudrati butunlay zaiflashgan, iqtisodiy va siyosiy tanazzulga olib kelgan davr edi. Podshohning vahshiyligi vaadolatsizligi, zulm va shafqatsizlik, fitna, odob-axloqning buzilishi, hokimlarda zulm yana kuchaydi. Podshoh Sulaymon nodon va ochko‘z shaxs bo‘lib, davlatni boshqarishning barcha vakolatlarini insofsiz amaldorlarga topshirib, o‘zi esa saroy a‘yonlarining o‘yinchog‘iga aylanadi (126:6). Kruinskiy o‘zining “Eron inqilobi tarixi” asarida bu noxush holatni, mudhish davrni to‘g‘ri ta’riflaydi: “Uning ahdining ahamiyati faqat shafqatsiz siyosat va vahshiylikda, uning mingdan birining ifodasi odamga qimmatga tushadi” (41:109). Shu tariqa, bu davrda podshohlar, hokimlar va amaldorlarda zulm, tovlamachilik, poraxo‘rlik kuchaydi. Fransuz sayyohi Rafael du Man va boshqa tarixchilarning ma’lumotlari Eronda bu davrda qanday vaziyat yuzaga kelganiga yaqqol dalildir. Ko‘pgina manbalarda Sharqiy Movarounnahr,

Eron va Xurosonning XVII asrdagi siyosiy-ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumotlar berilgan (9, 15, 19, 33, 39, 41, 58, 66, 72, 112, 126, 140).

Notinch zamon, siyosiy-iqtisodiy hayotning og'irligi, adabiyot ahli hukmron tabaqa tomonidan qo'llab-quvvatlanmayotganligiga qaramay, XVII asrda Movarunnahr, Xuroson va Eronda bir qator iste'dodli shoirlar yetishib chiqdi. Davrning murakkab sharoiti ijodkorlarning iste'dodini, ijodiy mahoratini sindirolmadi, adabiyot rivojiga to'sqinlik qila olmadi. Shunday qorong'u davrda shoirlar o'tgan asrdagi fors va tojik adabiyotining eng yaxshi an'analarini o'z she'rlerida davom ettirdilar, adabiy asarlari bilan shuhrat qozondilar. Ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivojlanishda davom yetdi.

Manbalarda yozilishicha, bu asrning birinchi yarmida Movarunnahr nisbatan tinch davrni boshidan kechirgan. Uning madaniyat markazlari – Buxoro, Samarqand va Balx obodlik sari yuz tutdi, bu shaharlarda me'morchilik san'atining buyuk namunalari hisoblangan bir qancha ulkan inshootlar qurildi. Manbalarda qayd etilishicha, bu davrda ilm-fan rivojlanib, bir qancha iste'dodli olimlar va shoirlar yetishib chiqqan. Samarqandlik Maleho tilga olgan olimlar ilmiy asarlarni jamlash va tasniflash bilangina cheklanmay, ilmiy faoliyat bilan birga she'riyat va adabiyot bilan ham jiddiy shug'ullanganlar.

Mamlakatdagi og'ir ahvol adabiyot rivojiga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, she'riyat va adabiyot rivojiga, xalqga g'amxo'rlik ko'rsatilmagan bo'lsa-da, bu mashhur soha taraqqiyotdan to'xtamadi, eski an'analarini davom ettirdi. She'riyat saroyda emas, undan tashqarida, ya'ni shahar muhitida gullab-yashnagan. Adabiyotning rivojlanishi shaharda, eng avvalo, hunarmandchilik to'garaklari bilan bog'liq bo'lib, XVII asrning 40-yillaridan boshlab adabiy hayotning bu yuksalishi yanada yaqqol namoyon bo'la boshladi. Samarqandlik Maleho qalamiga mansub "Muzakkir-ul-as'hob"dagi ma'lumotlar bu davr shahar doiralarida tojik adabiyoti rivojining yorqin dalilidir. Tazkirada Movarunnahrning 135 dan ortiq yosh-u keksa shoир va adiblari tilga olingan, ularning barchasi Maleho Samarqandiyning zamondoshlari bo'lib, ular asosan XVII asrning ikkinchi

yarmida Buxoro va Samarqandda ijod qilganlar. Voli Naimo Buxoroiy, Qoziy Nosir, Xojasame Sodot, Sayido Nasafiy, Fitrat Zardo‘zi Samarqandiy, Kirom, Mulham, Hoji Bahrom va Shavkat Buxoroiy kabi shoirlar o‘zlarining adabiy asarlari bilan katta shuhrat qozonganlar (112:24). Buxoroda shahar davralarining adabiyoti bilan bir qatorda saroy adabiy to‘garagi ham faoliyat ko‘rsatgan. Abdulazizxon Ashtarkoniy saroyida yaratilgan adabiyot shahar adabiy doiralariiga nisbatan unchalik shuhratga ega bo‘lmasa-da, avvalgi davrlardagi saroy adabiyotiga nisbatan ko‘proq edi.

Manbalarda qayd etilishicha, bu davrda so‘fiylik – diniy adabiyot ham mavjud bo‘lgan. Aytish joizki, bu davr adabiyoti rivojiga kasbiy mahoratga ega shoirlar guruhi munosib hissa qo‘sghan. Sayido, Sarafroz, Fitrat, Mulham kabi shoirlar o‘sha davr adabiyotining yorqin va yetuk namoyandalaridan edilar. “Mashhur notiq Shavkat Buxoroiy va yana uch nafar iste’dodli asr shoirlari Arshod, Toraj, Tamosho ham hunarmandlar sinfidan yetishib chiqqan” (112:35).

Bir qancha shoirlar hayot mashaqqatlari tufayli dehqonchilik, xattotlik, hikoyatchilik bilan shug‘ullansa, yana bir guruhi turli ishlar bilan kun o‘tkazdi. XVII asrning nihoyatda og‘ir sharoitida tarkidunyochilik g‘oyalari targ‘iboti, darvesh va qalandariylik maslagi avj oldi, uzlatga chekinish, tariqatlarga yo‘l olish kabi harakatlar kuchaydi.

XVII asrda adabiy janrlarning umumiy ahvolida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Bu davrda ham she’riyat nasrdan oldinda bo‘lib, g‘azal, qasida, masnaviy, ruboij kabilar eng ommabop she’r janrlari hisoblangan. G‘azal har doimgidek boshqa janrlarga qaraganda sermahsulroq edi. Bu asr qasidalari o‘sha davrdagi siyosiy vaziyatga qarab mazmunan o‘zgardi. Safaviylar hokimiyati shoirlarni Ali bin Abu Tolib, Imom Hasan va Imom Husayn oilalari, Karbalo dashtidagi voqealar sharafiga qasida va marsiya yozishga majbur qilganlar. Movarunnahrda esa vaziyat boshqacha edi. Buxoro va Samarcand adabiy markazlarida, asosan, shahar va san’at doiralari mavjud bo‘lgan joylarda badiiy ijod hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan. Bu faktlarni keltirish bejiz emas. Umrining

ikkinchi yarmini Xurosonda o'tkazgan Shavkat Buxoroiy siyosiy vaziyatga ko'ra, Ali bin Abu Tolib, Imom Hasan va Husayn, Fotima va Karbalo dashtidagi voqeani sharaflab madhiyalar yozadi.

Bu davrda tojik she'riyatining yana bir xususiyati uslub o'zgarishidir. She'rning bu uslubiy o'zgarishi dastlab Eron, Xuroson, Hindistonning bir qator yangi ta'lif olgan shoirlari ijodida namoyon bo'ladi va tez orada Movarounnahr shoirlari tomonidan mammuniyat bilan kutib olinadi. Eron, Xuroson va Hindistonda yangi uslubdagi she'riyat asoschilari Urfi Sheraziy (1555-1591), Naziriy (vafoti 1602), Nozim Hirotiy (1601-1671), Soib Tabreziy (1603-1677), Tolib Omuliy (vafoti 1623), Abu Tolib Koshoniy (vafoti 1650), Shavkat Buxoroiy (1696-1699), Nosirali Sarhindiy (vafoti 1695) va boshqalar. Bu shoirlarning har biri o'ziga xos uslubga ega bo'lsa-da, ularning umumiy jihatni ramziy va yangicha so'zlashuv uslubi edi. Bu she'riyatning yangi uslubi bo'lib, hozir adabiyotshunoslikda shartli ravishda "hind uslubi" deb ataladi. Biroq davr ziylolari, jumladan, Samarqandlik Maleho uni "she'ri tarz" va "tarzi nav" deb ta'riflagan. Aytish kerakki, bu uslub hozirda "hind uslubi" nomi bilan mashhur bo'lsa-da, u asosan Eron va Xuroson shoirlari ijodida yaratilgan va rivojlangan (122:55-56). Movarunnahrda hind uslubining ilk namoyandalaridan biri Shavkat Buxoroiy bo'lib, bu ko'plab manbalar tomonidan tasdiqlangan (8,13,18,35,66,79, 102, 103, 112, 129, 130, 131, 135, 138, 144, 151). Ajam shoirlari va ularning izdoshlari nafosat va tasavvur olamida yangicha mazmunli she'riyat yaratdilar. Shavkat Buxoroiy kuchli tasavvurga ega, she'riy g'oyalarga sezgir edi. Ammo o'sha davr shoirlarining ko'pchiligi Shavkat she'riyatini rad etganlar. Bu haqda Samarqandlik Maleho o'zining "Tazkira"sida aniq ma'lumotlarni keltiradi (58.104-111). Xulosa qilib aytganda, Shavkat Buxoroiy ana shunday zamon va adabiy muhitda tarbiyalanib, iste'dodli shoir sifatida tanilib, shuhrat qozongan.

Shavkat Buxoroiy shirinso'z so'fiy shoir, hind uslubining mashhur namoyandasini sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning ta'rifi va samarali adabiy faoliyatining ko'p jihatlari ilmiy jihatdan to'liq tadqiq etilmagan. Shavkat

Buxoroiy haqida ma'lumot beruvchi manbalar unchalik ko'p emas. Ularni mohiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin: ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar hamda adabiy-tarixiy manbalardan olingen ma'lumotlar. Manbalarning birinchi guruhiga Samarcandlik Malehoning "Muzakkir-ul-as'hob" (XVII asr), Mirzo Muhammad Tohiri Nasrobodiyning "Tazkirai Nasrobodiy" (XVII asr), Muhammad Haziniyning "Tazkiran-ush-shuaro" (XVII asr), Mavlono G'ulomalixon Ozodi Bilgiromiyuning "Xizonai Omira", Shamsuddin Somiyning "Qomus-ul-a'lom" (XVIII asr), Husaynqulixon Azimobodiyning "Nashtari ishq", Rizoqulixon Hidoyatning "G'iyos-ul-orifin", Ayniyuning "Namunai adabiyoti tojik", Shibliy No'moniyning "She'r-ul-ajam" asarlarini kiritish mumkin. Fitrati Zardo'zi Samarqandiyning "Tolibu Matlub" dostoni, Nosehi Xatloniyuning "Majlisafro'z" masnaviysi, Forig'i Hisoriyning she'rlari ikkinchi guruhga kiradi.

Ta'kidlash joizki, ikkala manbaning ma'lumotlari har xil va ayrim o'rirlarda qarama-qarshi fikrlarni ham uchratish mumkin. Shuning uchun biz ushbu ma'lumotlarning qiymatini aniqlash maqsadida ularni yaratilgan yilining ketma-ketligiga ko'ra birma-bir tekshirishni zarur deb bildik. Aytganimizdek, Shavkat Buxoroiy haqida ma'lumot beruvchi birinchi manba Samarqandlik Malehoning "Muzakkir ul-as'hob" tazkirasidir. Maleho Shavkat Buxoroiyning zamondoshi bo'lib, u bilan yetti oy birga bo'lgan. Bu holat ma'lumotlar ishonchli ekanligidan dalolat beradi va shoir ijodi, hayoti faoliyatini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu manbada shoir nomi Shoh Shavkat Qalandar timsolidan tasvirlangan bo'lib, muallif Shoh Shavkat haqida quyidagilarni keltiradi: "Бухороист, фаридулакрон вахидуззамон аст. То дар Бухоро буд, чи қадар, ки мардуми Тўрон мункири мушорунилайх буданд, баъд аз убур бар чониби Ерон, ҳамон қадар ба хубии мумонлайх муқарраранд, балки фусаҳои Руму Мағриб чун булағои Мисру Шом ба ранги зурафои Ироқу шуарои Хуросон бар фасоҳату балоғати ў мутаффиқуллафа ва-л маъниянд" (58:104-105). Bu gaplardan ma'lum bo'lishicha, Maleho Shavkat Buxoroyni alohida hurmat qilgan. Tazkirada

shoirning tarjimai holini tavsiflovchi ayrim jihatlarga urg‘u berilmagan. Hatto shoirning tug‘ilgan yili ham tilga olinmagan. Muallif o‘z tazkirasining “Mulhakot” qismida shunday deydi: “Shavkat Buxoroiy Buxoro shahrida savdo-sotiq bilan shug‘ullangan: o‘sha paytda uning tabiatи zavqli, begona ijodga oshno edi. U uzoq o‘ylardi. Shu bois uni suhabatdoshlari inkor etib, Shavkat Iroqining she’rlarini o‘g‘irlab olganini aytishardi. U Buxoroda ekan, uning so‘zlarini hech kim qabul qilmadi, ayniqsa, Mirsharif Nasim. Shu sababdan yuragi og‘rib, Iroq saltanatiga ketdi” (58:79-82).

Bu iqtibosdan ma’lum bo‘lishicha, Shavkat Buxoroiyning hijrat qilish sabablaridan biri uning iste’dodi va nafosatiga hasad qildigan ba’zi zaif fikrli kishilarning tuhmatlaridir. Samarqandlik Maleho o‘z tazkirasida 1088-yilda (1676-1677) Isfahonda Shavkat Buxoroiy taqdirini alohida ta’kidlagan.

Mirzo Tohir Nasrobodiy shoir haqida gapirar ekan, Maleho o‘zining uyida mehmon bo‘lib, u yerda Hoji Farudunbek va Zamonoining otasi Mirzo Ma’suda Shoh Shavkat bilan uchrashghanini ta’kidlaydi. Va bu sanani hijriy 1090-yil (milodiy 1678-1679) deb belgilaydi.

Maleho Shavkat Buxoroiy she’riyatining ma’nosi va tasavvur olamining kengligi bilan o‘ziga xosligini aytadi va shoirning o‘z so‘zidan kelib chiqib, uning uch devoni borligini ta’kidlaydi. “Mendan uch devonimni olib ketdilar”, - deb aytar edi (58:108). Shavkat Buxoroyni anglashga yordam beradigan yana bir jihat uning “she’riyatdagi yangi an'anaga moyilligi”dir. Bu ta’kid shoirning “yangi uslub” – “hind uslubi” vakili ekanligidan dalolat beradi. Biz buni ishimizning boshqa qismida batafsil muhokama qilamiz. Tazkira muallifining yana bir yaxshi ma’lumoti shundaki, u Shavkat Buxoroyni nafaqat shoir, balki o‘z davrining komil va oliyanob insoni sifatida ta’riflaydi: “Аз кўчаку бузург ва аз шоҳ то гадо дар мулки Ерон ҳамаро хохиши сўхбату орзуи улфатии ўст” (58:109). Mazmuni: “Eron ahlining kichikdan kattagacha, shohdan gadogacha bo‘lgan aholisi uning suhabatini istar edi”. Tazkiraning Shoh Shavkat Qalandarga bag‘ishlangan bo‘limida shoirning 70 dan ortiq baytlari, o‘zi yozgan she’rlaridan

iqtibos keltiriladi.

Shavkat Buxoroiy haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri Mirzo Tohir Nasrobodiyning “Tazkirai Nasrobodiy” asaridir. Nasrobodiy ham shoirning zamondoshi. Malehoga o'xshab Buxorolik ekanini ta'kidlaydi. Tazkirada shoir nomi Mavlono Shavkat sifatida ko'rsatilgan. Shoirning o'z ona shahri Buxorodan Hirotg'a jo'nab ketgan sanasi ham 1088-yil deb qayd etilgan. Har ikki muallifning shoir zamondoshi bo'lgani va u bilan uchrashganligi inobatga olinsa, bu fikrlarning haqiqatiga shubha qolmaydi. Ikkinchidan, tazkira muallifi Hirotda vazir Mirzo Saididdin Muhammad bilan uchrashib, uning Buxorolik Shavkatning iltifotiga loyiq ekanini ta'kidlab, hozir Hirotda ekanini aytadi.

Shavkat Buxoroiy haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri Mavlono G'ulomalixon Ozodi Bilgiromiyning “Xizonai omira” (1763-yilda tuzilgan) tazkirasidir. Bu asarda shoir ijodi va hayot faoliyati haqida yangi talqin va fikrlar uchraydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muallif avvalgi tazkira mualliflariga nisbatan shoir hayoti va faoliyatiga o'z munosabatini umumiy emas, aniqroq, fakt va hujjatlar asosida ifodalaydi. Agar avvalgi tazkiralarda, xususan, Samarqandlik Malehoning “Muzakkir ul-as'hob”ida Shavkat Buxoroiyning so'z boyligi, she'riyatidagi mubolag'alar, she'riy uslubi ko'proq tilga olingan bo'lsa, “Xizona omira”da shoir hayotining muhim lahzalari o'z aksini topgan. Masalan, Samarqandlik Malehoning tazkirasida va “Tazkirai Nasrobodiy”da shoirning ismi va nasabi haqida batafsil ma'lumot berilmagan. G'ulomalixon Ozodning aytishicha, Shavkat Muhammad Is'hoq Buxoroiy Buxoroda tug'ilgan, otasi sarrof bo'lgan. Yoshligida uni ilm o'r ganishi uchun maktabga bergen. Bu ma'lumolardan kelib chiqadiki, shoirning to'liq ismi Muhammaddis'hoq Shavkat Buxoroiy bo'lib, boshqa tazkiralarda uchraydigan Shoh, Mavlono, Qalandar qo'shimchalari uning sharaflı va hurmatli taxalluslaridir. Shoir ota kasbini o'rgangan, shoirning she'riyati o'sha davrda mashhur bo'lib ommalashgan, uning didi ham “yangi tarz”ga moyil bo'lgan. Shu munosabat bilan tazkiralarda shunday deyiladi: “... o'sha davrda Mirzo Soib so'zlari gullab-yashnagan, Shavkatda bunga moyillik

paydo bo‘lgan va she’rlar yozgan. Avvalgi ijodida “Nozuk”ni qo‘llagan, nihoyat “Shavkat” taxallusini olishga qaror qilgan, shu fikrlardan so‘ng o‘z fikrini isbotlash uchun Shavkat Buxoroiy g‘azalidan bir bayt keltiradi:

Маснаднишини хокем, олимақоми фақрем.

Омад зи мабдаи файз “Шавкат” хитоб моро (56:281-282).

Mazmuni: Taxtga o‘tirgan bo‘lsak ham, oliv maqomimiz faqrlikdir, avvaldan bizga shunday fayz, ya’ni “Shavkat” degan ovoz keldi.

Tazkira muallifining yana bir muhim ma’lumoti shundaki, u o‘z tazkirasing avvalida Shavkat Buxoroiy avval “Nozuk” taxallusi bilan ijod qilganligini aytadi. Ushbu ma’lumot keyingi adabiyotshunoslar tomonidan qo‘llaniladi.

Tazkirada shoirning do‘koniga ikki askar kelib, uni ranjitganidan jahli chiqib, majburan Buxoroni tark etganligi ta’kidlangan. U avval Hirota borib Safiqulixon Shomlu xizmatida bo‘ladi. So‘ng Mashhad bilan Nishapur shahrini ziyyarat qiladi, bir muddat Mirzo Sa’duddin xizmatida bo‘ladi. “Shavkat yillar davomida Hirotda Mirzo Sa’duddin bilan birga bo‘ladi, keyinroq oralarida janjal chiqadi” (56:282). Shoir Mirzo Sa’duddin dargohidan hech nimasiz Isfahon tomon yo‘l oladi. Shahar tashqarisida Shayx Ali binni Suhayl maqbarisi bor edi, o‘sha yerda yashashni ixtiyor qiladi va faqirlikni ma’qul ko‘rib, juda oddiy umr kechiradi.

Manbalarda Shavkat Buxoroiy vafot etgan yili turlicha berilgan. “Xizonai omira” muallifi bu borada Muhammad Hazinning “Tazkirat-ush-shuar” va “Mirat-us-safo” ma’lumotlarini takrorlaydi. Bu manbalarda Shavkat Buxoroiy vafot etgan sana hijriy 1107 (milodiy 1695) va hijriy 1111-yil (milodiy 1699) deb taxmin qilinadi. Hozircha bu ma’lumotlarga yangi faktlar qo‘silmagani bois adabiyotshunoslikda shoirning vafot etgan yili 1695-1699-yillar oralig‘ida taxmin qilinadi.

G‘ulomalixon Ozod Shavkat Buxoroiy ijodidan namunalar keltirishda o‘ziga xos yondashadi. U shoirning 29 g‘azalidan (58 bayt) keltiradi.

Azimobodiy Husaynqulixon “Nashtari ishq”da (1817-yilda tuzilgan) “Xizonai omira” kitobidagi ma’lumotlarni ko‘proq takrorlaydi. U faqat bir nechta qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni keltiradi, ular quyidagilardan iborat:

- “Tazkira”da yozilishicha, Shavkat Buxoroiy Buxorodan faqat sayohat maqsadida chiqqan;
- Shoирning “Shavkat” taxallusi sabab Xuroson vaziri Mirzo Sa’duddin bilan bog‘liq, deb hisoblaydi;
- Husaynqulixon Azimobodiy shoирning Mirzo Sa’duddin xizmatidan ketishi sababini batafsil yoritadi;
- “Nashtari ishq”da Shavkat Buxoroiyning ishqiy she’riyati namunalari nisbatan ko‘p, 50 misrani tashkil etadi.

Shamsuddin Somiyning “Qomus-ul-a’lom” asarida ham Shavkat Buxoroiy hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar bor. Biroq Somiy tomonidan berilgan ba’zi ma’lumotlar va avvalgi manbalarning ma’lumoti orasida tafovut mavjud. Bu farq avvalgi tazkiralarining aksariyatida buxorolik sarrofning o‘g‘li, “Qomus-ul-a’lom” muallifi Shavkat Buxoroiy Buxoro amirining o‘g‘li deb ataganligidan kelib chiqadi. “Oti Muhammad Is’hoqbek, Buxoro amirining o‘g‘li edi. Otasi vafotidan keyin amirlik uning amakiyachchalaridan biriga o‘tadi. Bu kishining Buxoroda turishi qiyinlashgani sababli, Buxorodin Marv shahriga yo‘l oldi” (132).

Agar Shavkat Buxoroiy Buxoro amirining o‘g‘li bo‘lsa, Maleho, Nasrobodiy, Husaynqulixon, G‘ulomalixoni Ozod bu haqda nima uchun ma’lumot bermagan? Bu manbalar “Qomus-ul-a’lom”dan ko‘ra Shavkat Buxoroiy yashagan davrga yaqinroq bo‘lgani va ulardan ayrimlarining mualliflari shoир bilan suhbат qilgani, uchrashganligi uchun bu asarlardagi ma’lumotlarni ishonchli deb hisoblash mumkin. Boshqa tomondan, fors-tojik adabiyoti tarixida “Shavkat” taxallusi bilan she’rlar yozgan yettitadan ortiq shoirlar ma’lum. Balki bu Shavkatlardan biri amirning o‘g‘li bo‘lsa, ajab emas Shamsuddin Somiy o‘zining “Qomus-ul-a’lom” tazkirasida Shavkat Buxoroiy deb o‘ylagandir.

Shavkat haqidagi ma’lumotlar Rizoqulixon Hidoyatning “Riyoz-ul-

orifin”ida ham keltirilgan. Ushbu tazkira muallifi Muhammad Hazinning “Tazkirat-ush-shuaro” asaridagi fikrlardan ham foydalangan. Xuddi shu ma’lumotni “Dehxudo lug‘ati” muallifi Ali Akbar Dehxudo ham so‘zma-so‘z keltiradi: “Дар айёми шитоб ўро дидам (Шавкат Бухоройни – К.Т., С.Р.), намадпораэ дар дўш ва сарупои барахна дар миёни барф мегузашт ва ба кадри як шибр барф бар сарашиб чамъ шуда буд. Ва аз шўридаги ҳол ва парешонии хаёл дар мақоми рехтани он намеомад” (30).

“Men uni (Shavkat Buxoroiyini – Q.T., S.R.), shoshqaloqlik chog‘ida yelkasida kigiz bo‘lagi, yalang oyoq qor ustida yurar edi, boshida qor to‘plangan holida ko‘rgan edim. Va ahvolining chalkashligi va xayolining parishonligidan qorni tushurish aqliga kelmadи” (30).

Shavkat Buxoroiy haqida ma’lumot beruvchi manbalarning yana biri adabiy manbalardir.

XVII asr ikkinchi yarmining mashhur va ko‘zga ko‘ringan shoirlaridan hisoblangan Samarqandlik Saidkamol Fitrat Zardo‘ziy “Tolibu Matlub” dostonining birinchi boblaridan birida o‘z ijodi haqida g‘urur bilan gapiradi. Shunda hind uslubi ustalari Soibi Tabreziy, Kalim Koshoniy, G‘ani Kashmiriy, Nosirali Sarhindiy, Nozim Hirotiy va Qosim Devona bilan birga Shavkat Buxoroiy nomini ham tilga oladi:

Табиат аз хато гардида тоиб,
Ба фикри рост моил ҳамчун Соиб.
Ба оини Калими соҳибеъчоз,
Забон мегуфт дар таври сухан роз.
Фанӣ гардида табъ аз ганчи маънӣ,
Ба амволи сухан гашта тасаллӣ.
Зи мисраъҳо хаёлам баста чун саф,
Алиро зулфиқор дода бар каф.
Ба назми шӯхи ман дил дод Нозим,
Зи хусни маъниям дилро ба Қосим.

Чунон аз шўр фикрам рафта аз чо,

Ки Шавкат кард аз вай айш пиро (112:126).

Iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, Fitrat ham o‘zini yangi uslub – yangicha nazm uslubi tarafdori hisoblagan. U hind uslubi ustalarining uslub xususiyatlarini birin-
ketin keltiradi va o‘zini ular bilan tenglashtiradi. Xususan, u Shavkat Buxoroiyning
buyuk va isyonkor fikriga ishora qilib, o‘zini undan yuqori qo‘yadi. Bu, bir
tomondan, shoirning o‘z ijodi bilan faxrlanishidir.

Abdurahmonxo‘ja Ibn Mirzonadshoh Nosehi Xatloniy (1767-yilda tug‘ilgan)
qalamiga mansub “Majlisafruz” masnaviyida Nozim Hirotiy, Tolib Omuliy, Soibi
Tabreziy va Bedil bilan birga Shavkatning ham nomi tilga olingan. Unda shoir
nutqining ma’naviy inqirozidan noliydi va hind uslubida she’rlar aytayotganlardan
ortda qolib ketganidan afsuslanadi:

Назар кардам ба авзои замона,

Гирифта рағбати халқ аз миёна.

Ба назми Нозиму Толиб надидам,

Ба Шавкат хотири Соиб надидам.

Харидори зи “Унсур” гашта Бедил,

Ки ў таъсиromez асту мушкил (14-15).

XVIII asr va XIX asr oxirlarining adabiyotida hind uslubining ta’siri
avvalgidan ko‘ra ko‘proq sezildi. Bu davr adabiyotining aksariyat namoyandalarini
Sodiq, Forig‘, Nozil, Hasrat Fano va boshqalar hind uslubi bilan yaqindan tanish,
o‘zları ham unda qalam tebratib ko‘radilar. Bu yerda Urfi Sheroyi, Naziri
Nishopuriy, Tolib Omuliy, Soibi Tabreziy, Nosirali Sarhindiy, Shavkat Buxoroiy
va Bedilning ijodiga teng kelish juda qiyin bo‘lgani uchun ular bu yo‘ldan qaytib,
XIII-XV asr shoirlari ijodiy an’anasiga yuz tutadilar. Xuddi shu mazmunni o‘sha
davr shoiri Forig‘i Hisoriyining she’rlaridan birida ham kuzatish mumkin:

Чанд созам шона чун машшота гесёни сухан,

Аз Чунайду Шавкату Бедил маро нанг асту ор.

То ба назми Хусрав фаррухнишон бастам ракам

Гашт мазмунҳо зи эъчози каломам ошкор (167:245).

Shavkat Buxoroiyning jo'shqinligi Muhammad Naqibxon Tug'ral Ahroriy (1865-1919) qasidasida ham tilga olingan. Bu asarning bir baytida Shavkat Buxoroiyning ta'rifi keltiriladi:

Гуфтаи Шавкат ба шикасти сухан.

Муми сиёҳ аст, на чун мӯмиёст (118:350).

Tadqiqot davomida biz asosan mavjud tazkiralardan keng foydalandik. Biroq ularning aksariyatida Samarcandlik Malehoning “Muzakkir-ul-as’hob”idan tashqari, asosiy manbalardan olingan ma'lumotlar bizgacha takrorlangan.

Bu tazkiralar Muhammad Hazinining “Tazkirat-ush-shuaro”si (XVIII -asr), “G’iyos-ul-orifin”, Shomlulik Valiqulixon Ibn Dovutqulixonning (XVII asr) “Qasas-ul-haqoniy”lari bo‘lib, hozirgacha fors-tojik adabiyoti ixlosmandlari qo‘liga yetgan emas.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, aksariyat manbalarda Shavkat Buxoroiyning hayot yo‘li tarqoq tarzda aks ettirilgan. Shu bois shoir tarjimai holining barcha tafsilotlarini aniq manbalar asosida o‘rganish zarur. Shavkat Buxoroiy ijodi borasidagi manba ma'lumotlari ham yuzaki. Ularda she’rlarining soni haqida emas, balki devonining soni haqida gapiriladi.

Aksariyat tazkiralarda shoir shaxsiyati, uning she’rlari shuhratiga oid eslatmalar ko‘p. Ayniqsa, Maleho uni “she’riyatdagি yangi uslub”ning eng muvaffaqiyatli namoyandalaridan biri deb aytadi. Shavkat Buxoroiyning shoirlilik mahoratinji juda samimiyl va mubolag‘ali tarzda tasvirlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Shavkat Buxoroiy hayotiga oid ma'lumotlarning ayrim jihatlari bir-biriga zid va noaniqlik mavjud. Bu farqlar va nomuvofiqliklar asosan quyidagilardan iborat. Hech bir manbada shoirning aniq yoki taxminiy tug‘ilgan yili ko‘rsatilmagan: uning ta’lim va yoshlik yillari to‘liq tasvirlanmagan. Aksariyat manbalarda shoirning otasi sarrof bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lsa, “Qomus-ul-a’lam”da Shavkat Buxoroiy Buxoro amirining o‘g‘li sifatida tilga olinadi. Shoirning yoshi va Buxoroni tark etish sababi turlicha

izohlangan: uning “Shavkat” taxallusi sababi haqida turli ma'lumotlar mavjud. Shoирning vafoti sanasi ikki xilda keltirilgan. Shavkat Buxoroiy she'rlarining miqdori va hajmi haqida ma'lumot yo'q. Ushbu masalalarning aksariyati munozarali.

Hozirgi adabiyotshunoslikda tilga olingan masalalar to'liq o'z yechimini topmagan. Shoирning bebaҳo asarlarini ketma-ket o'rganish va targ'ib qilish XX asrning 20-yillarda boshlangan. Bu sohada ham tojik adabiyotida, ham o'zbek va xorijiy adabiyotlarda bir qancha qimmatli tadqiqotlar olib borildi. Bu yerda Sadriddin Ayniy xizmatlari, I.Braginskiy, Zabehullo Safo, Abulg'ani Mirzayev, Z.Rizayev, M.Ahmadov, A.Alimardonov, Sadri Sa'diyev, Shavkat Shukurov, J.Dodalishov, Asqar Jonfido, K.Zakovati (8, 18, 33, 66, 70, 102, 103, 112, 129, 130, 138, 144) va boshqalarni alohida qayd etish lozim.

Shavkat Buxoroiy va uning asarlari tavsifiga oid birinchi, nisbatan keng qamrovli va izchil tadqiqot ustoz Sadriddin Ayniy tomonidan yakunlandi. U o'zining “Tojik adabiyoti namunasasi” asarida “Xizona omira”ga tayangan holda shoир hayoti tasviri haqida ma'lumot berishga harakat qilgan. Muallif bu ma'lumotlarni o'ziga xos tarzda keltiradi, ya'ni avval shoир nomi haqida bir-ikkita ma'lumot beradi, so'ngra uning asarlaridan 5 ta g'azal (22 bayt) keltiradi va oxirida ayrim ma'lumotlarga tayangan holda sharh-u izoh beradi.

Shavkat Buxoroiy ijodi va hayotini o'rganishga alohida diqqat qaratgan adabiyotshunos Z.Rizayevdir. Bu tadqiqotchi hind uslubining ushbu vakili haqidagi tadqiqot natijalari va topilmalarini 1961-yilda (“Shavkati Buxoroiy”) risola holida nashr ettingan. Bu kitob o'zbek tilida bo'lib, unda shoир hayoti va ijodi nisbatan to'laqonli tasvirlangan. Risola muallifi mavjud materiallar asosida shoир hayotini qiyosiy yo'l bilan tiklashga harakat qilgan. 1971-yilda Z.Rizayevning “XVI-XVII asr oxirlarida hind uslubi va fors she'riyati” nomli kitobi chop etilgan bo'lib, unda Shavkat Buxoroiy hind uslubining ko'zga ko'ringan namoyandasini sifatida alohida ta'kidlangan, shoир uslubi haqida qiziqarli fikrlar bildirilgan. Kitobda ijobiy tomonlar va bahsli fikrlar ham mavjud. Biz ulardan biri haqida fikr-

mulohazamizni bildiramiz. Z.Rizayev o‘z ilmiy ishining “Hind she’riyatining g‘oyaviy mazmuni” (36-177-betlar) nomli ikkinchi bobida ko‘pincha Shavkat Buxoroiy she’rlariga murojaat qiladi, misralarni keltirib, qisqacha tahlil qiladi. Ularda ijobjiy fikrlar bilan bir qatorda ko‘plab munozarali tahlillar mavjud. Xususan, tadqiqotchining 79-betdagи mulohazalari shubhali. Z.Rizayev mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan fikrlarni keltirib, o‘z fikrini isbotlash uchun Shavkat Buxoroiyning quyidagi to‘liq bo‘lmagan g‘azalini keltiradi:

Куфру дин як чода бошад мардуми огоҳро,
Шуд чудо аз ҳам з-бас карданд қатъ ин роҳро.
Ишқ роҳат дорад аз паҳлӯи ақли ҳилагар,
Шеъри мо болини пар дорад думи рӯбоҳро.
Чодаи саҳрои машраб ҷабҳаи бикушодааст,
Чини пешонӣ бувад пасту баланд ин роҳро.

Muallif Boborahim Mashrabning inson, uning kelib chiqishi, Yaratgan oldidagi mavqeи kabi falsafiy masalalarga doir fikrini keltirib, shunday yozadi: “Mana shu va Mashrab ilgari surgan bir qator g‘oyalar Sharq shoirlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Ular Mashrab va uning falsafasiga qiziqib, ko‘p misralar yozdilar” (102:79). Shundan so‘ng fikrini isbotlash uchun Shavkat Buxoroiyning yuqorida zikr etilgan g‘azalini keltiradi. Darhaqiqat, bu g‘azal Shavkat Buxoroiy qalamiga mansub, uni qo‘lyozma kitoblarida uchratish mumkin, ilmiy-tanqidiy she’rlar kitobiga ham kiritilgan. Bundan kelib chiqadiki, bu g‘azal Shavkat Buxoroyga mansub, boshqa ijodkorga daxli yo‘q. Ammo g‘azal oxirida muallifning o‘rinsiz fikrlari kishini hayratga soladi. Olim xudo va inson muammozi haqidagi yuqoridagi fikrlarini Shavkat Buxoroiy misolida davom ettiradi va: tadqiqotchi noto‘g‘ri fikr yuritib “Shunda Shavkat Mashrab (Boborahim Mashrab – Q.T., S.R.) haqida she’rimiz deyiladi, deydi. U o‘zining ilg‘or g‘oyalarini o‘sha paytda ommalashgan "sevgi" g‘oyasi bilan yashiradi. Birinchidan, Shavkat Buxoroiy Boborahim Mashrabni shaxs yo shoir sifatida bilarmidi? Hech bo‘lmaganda, bu ikki ijodkor bir-birining asarlaridan

xabardormidi? Manbalarda, tarixiy, ilmiy va badiiy asarlarda bu haqda ishoralar bormi? Bunday savollarni davom yana ettirish mumkin. Ammo biz ko‘zdan kechirgan manbalarning birortasida ham yuqoridagi savollarga javob topa olmadik. To‘g‘ri, Shavkat Buxoroiy bilan Boborahim Mashrab bir davrda, lekin ikki yurtda ulg‘ayib, ta’lim-tarbiya olishgan. Buyuk o‘zbek shoiri Mashrab Buxoroga kelganida, Shavkat Buxoroiy kindik qoni to‘kilgan bu muborak zaminni allaqachon tark etgan edi. Shunday bo‘lsa-da, muallifning Shavkat Buxoroiy tilidan “ishq o‘shanda oshkora bo‘lgan” iborasi odamni hayratga soladi. Bu beparvo qo‘llangan ibora bilan tadqiqotchi o‘z g‘oyalari uchun mustahkam ilmiy asos yo‘qligini ochib beradi.

Bunday nuqsonli jumlalarni kitob sahifalarida ko‘p uchratish mumkin. Boborahim Mashrabni “himoya”ga olgan tadqiqotchi shunday asossiz fikrlarni aytadi: “Mashrab tasavvufiy ishqdan, Xudoga muhabbatdan yiroq edi”. Kitob 70-yillarda va o‘sha davr Mashrab ilmi ruhidha yozilganini inobatga olsak, olimning ahvolini anglash mumkin. Ammo uning keyingi fikrlari hech qanday dalil bilan oqlanmaydi. “Shavkat Buxoroiy aytadi, deydi tadqiqotchi Z.Rizayev, Mashrab tulki dumini pat yostiq deb hisoblaydi” va u o‘zining o‘ylarini hiyla “nayrang” bilan ifodalay olgan (102:79). Uning noto‘g‘ri talqin qilishi va tushuntirishi natijasida “tulki dumi” va “ayyor” sun‘iy ravishda maqsadga yo‘naltiriladi. Chunki mantiqsiz jumlalar yaratilgan. Tadqiqotching bu xatoga yo‘l qo‘yanining sabablaridan biri, “mashrab” so‘zini o‘ziga xos ot, adabiy taxallus sifatida qabul qilishidir, agar g‘azal satrlarini qayta-qayta o‘qib chiqsangiz, mashrabga bog‘liq hech qanday fikr yo‘qligiga ishonch hosil qilasiz. G‘azalning birinchi misrasida “joda” so‘ziga urg‘u berilgan. Bu so‘zning sinonimi quyidagi misralarda qo‘llangan. “Mashrab” so‘zi ham xuddi shu “joda” bilan bog‘liq. “Farhangi zaboni tojikiy”da yo‘l, to‘g‘ri yo‘l, sahroning to‘g‘ri yo‘li” ma’nosini anglatishi ta‘kidlangan (125:784).

X-XX-asrlar fors-tojik adabiyoti namunalari asosida nashr etilgan lug‘atda “mashrab” so‘ziga ham batatsil izoh berilgan. Lug‘atdagi ma’lumotga ko‘ra, “чои

обхўрӣ ва обгирӣ, нӯшидангоҳ, зарфе, ки аз он об, шароб ва ғайра менӯшад, насиба, ғоя маслак, хулку атвор, ҳӯй, хислат” (24-60-betlar) “sug‘oradigan joy, suv ichadigan joy, suv ichadigan idish, sharob kabilar, nisbat, xarakter, shaxs” kabi ma’nolarni bildirgan. Shavkat Buxoroiy g‘azalidagi tasavvufiy ohangga tayansak, mashrab so‘zi jins otiga aylanadi. G‘azalning “Mashrab dalasining yo‘li” iborasi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir maslak va tariqat yo‘lining to‘g‘riligiga amal qilishi uning pokligiga ishora va donishmandni kamolga yetkazishini aytadi.

Z.Rizayev she’riy misralarni noto‘g‘ri talqin etganligiga yana boshqa dalillar ham bor. Bu sahifada ham Shavkat Buxoroiyning Boborahim Mashrabga bag‘ishlangan g‘azalidan to‘rt misrasi keltirilgan. Ta’kidlash joizki, bu g‘azal taxallussiz bo‘lib, shoir devonining qo‘lyozma va ilmiy-tanqidiy matnlarida uchratish mumkin (103-393-betlar). Fikrimizning tasdiqi uchun g‘azalning to‘liq matnini taqdim etamiz:

Нишин то ба кай ғофил, забонро вакф ё раб кун,
Паи шабзиндадорӣ, то тавони рӯзи худ шаб кун.
Лаби мӯҳточии роҳ, хона хочат раво бошад,
Ба дунболи дуои худ бирав, изҳори матлаб кун.
Бувад пинҳон ба ҳар мушт ғуборат чашмаи нурӣ,
Ба гардун гарди ҳастиро расону номи кавқаб кун.
Зи ранги гул либоси орият дорад ба бар шабнам,
Ба ҳар мазҳабе, ки хоҳӣ чилва қун, аммо ба машраб қун⁵.

Shavkat Buxoroiy shunday yurtning farzandiki, bu zamin xojagon-naqshbandiya tariqatining pirlari maskan topgan manzildir. Shavkat Buxoroiydek hassos shoir o‘sha ma’naviy manbadan bahramand bo‘lmagan bo‘lishi mumkin emas.

Shoir jamiyat dard-u dog'larini nazm rishtasiga tortar ekan, bu holatni o'sha makon va jamoada yashayotgan har bir shaxsning xislat-u raftori bilan bog'liq ravishda xalqona, hayotiy lavhalarga boy, bo'yoq dor ifodalashga erishdi. Shavkat Buxoroiyning qat'iy ishonchiga ko'ra, davr manzaralarining yaxshilikka yuz burishi yoxud tubanlashuviga har bir inson o'zining muayyan "ulushi"ni qo'shadi.

Insonshunoslik ilmi odamlarni yaxshi xulq-atvorga chaqirib, yomon illatlardan qaytaradi. Ilmi axloqni o'rgangan va unga rioxaya qilgan har bir odam bu dunyoda aziz va oxiratda shafoatli bo'ladi. Xushxulq insonlar o'z sa'y-u harakatlari bilan dushmanlarini do'stga aylantiradilar. Shu jihatdan olganda, odamzod boshqa maxluqqtadan, ongli faoliyati, shirin so'zi, yaxshi odobi, fikri va go'zal axloqi bilan farq qiladi. Yukoridagi ezgu fazilatlar negizini poklik tashkil etadi. Poklik, ilm-u adab qadrini bilish, o'z dini, vatan va millatini sevish, vaqtini bekor o'tkazmaslik, Parvardigorga ibodat qilish, ota-onasi so'zlariga itoat etish, odamlarga izzat-hurmatda bo'lish, to'g'ri gapirish, saxovat va muloyimlikni odat qilish, ochiqchehra, tavozeli bo'lismi – bularning hammasi komil insonning ibratli fazilatlaridir. Adabiyotda bunday mavzular ko'proq diniy-tasavvufiy asarlar vositasida targ'ib va tashviq qilinadi. Zero, bir tariqat shayxidan suradilar: – Tasavvuf nedur? Shayx javob berib aytdi: – Bori axloqdur!

XVII asr shoirlari ma'naviy merosida tasavvufiy asarlar yozish yetakchilik qiladi. Ular o'z g'azal va ruboiylarida diniy-tasavvufiy g'oyalar talqiniga alohida

urg‘u berdilar. Bunday mayl Shavkat Buxoroiy asarlarida ham yorqin ko’zga tashlanadi.

Samarqandlik Muhammad Bade’ Maleho “Muzakkir ul-as’hob” tazkirasida keltirgan malumotlariga qaraganda, Shavkat xayotining muayyan qismida qalandarona umr kechirgan. Tabiiyki, qalandarona va darveshona turmush tarzi uning she’riyatiga ham o’z ta’sirini ko’rsatgan.

Shavkat Buxoroiy she’rlarida ilohiy g‘oyalar, Parvardigorga aytilgan hamdu sanolar ildizi ham so’fiyona turmush tarziga aloqador.

Shoirning aqidasisiga muvofiq, Olloh Taoloning nuri nafaqat insonning tashqi ko’rinishda, balki odamzodning dilida ham maskan topgan:

Боз кун рахнаи дил, нури худоро дарёб,

Чок зан пироҳани хеш, ҳаворо дарёб⁷.

Mazmuni: Ko’nglingni yorg‘il-u xudoning nurini top. Yoqangni chok qilib yirtgin-u havoni top.

Oshiq uchun ma’shuqasiz onlar – hijron azobi, mahbubani topish esa yurakni chok-chok qilishdir. Shavkat Buxoroiy asarlarida nafaqat Parvardigor vasfi, balki uning payg‘ambari Muhammad Mustafo va boshqa payg‘ambarlar madhini ham uchratish mumkin.

Biroq shoirning Muhammad payg‘ambarga mehr-u oqibati, samimiyat-u muhabbati bag‘oyat baland. Buni quyidagi misralarda aniq ko’rish mumkin.

Хонад лутфан ба худ Мухаммадро,

Қоба - қавсайн сохташ меҳроб,

Он Мухаммад, ки чун гули сероб,

Чайби афлоқ карда нур зи гулоб.

Mazmuni: Lutfing Muhammadni o’ziga chorlaydi. Ikki qosh oralig‘iday masofani unga mehrob (yani; Yaratgan uni shu qadar, o’ziga yaqin tutadi) qildi. Muhammad toza va serob gulday bo’lgani uchun qo’ynini gulobga to’ldirdi.

⁷ Шеърий мисоллар шоирнинг Шавкат Бухорий. Девони ашъор. Матни илмий-интиқодӣ. Бо тасхех ва мукаддима. Чобулқо Додалишоев. – Душанбе: Дониш, 1987. – 634 с. девонидан олинди.

Olloh Taolo marhamat va mehribonligi bilan janobi Rasuli akramni o'z yoniga chorlagan edi. Shoир yuqorida biz keltirgan she'riy parchanening birinchi misrasida me'roj kechasini nazarda tutadi. Bu bilan misrada yopiq talmeh san'atini qo'llaydi. Shavkat Buxoroiyning shoirlik mahorati shundaki, talmeh san'ati yordamida o'sha me'roj kechasi hamda Olloh bilan uning Rasuli o'rtaсидаги suhabatni bir necha baytda ustalik bilan tasvirlashga erishadi.

Shavkat Buxoroiy ijodiyotida oxirzamon payg'ambari Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan tashqari, Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Ya'qub, Yusuf, Ayyub, Muso, Sulaymon, Xizr, Dovud, Iso va boshqa payg'ambarlarning nomlari ham zikr etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, payg'ambarlar obrazi yordamida g'azallarda diniytasavvufiy g'oyalar olg'a suriladi. Shoир ularni ibrat qilib ko'rsatish orqali odamlarni komilllikka da'vat etadi.

Naqshbandiya ta'limoti vujudga kelgunga qadar bir qator tasavvufiy silsilalar faoliyat ko'rsatib, ular haqqqa yetishishning boshqa xilma-xil yo'llarini targ'ib-tashviq qilib keldilar. Bu silsilalarga ergashuvchilarning ko'pchiligi odamlardan chetlashish va xilyatnishinlikni o'z talimotlarining asosi deb bildilar. Garchi Shavkat Buxoroiy umrining oxirida go'shanishinlikni ixtiyor qilgan bo'lsada, uning she'rlarida Naqshbandiylikning xayotbaxsh ta'limoti g'oyalari targ'ibi yetakchilik qiladi:

Ба гетй то ба кай маҳбус бошй сайри олам кун,

Бувад як чо нишастан то камар зери замин будан.

Mazmuni: Dunyoda qachongacha tutqun bo'lib yurasan, olamni sayr qil. Bir joyda o'tirish, belingga yer ostiga ko'milganga o'xshaydi.

Naqshbandiya ta'limotining markazida komil va orif inson masalasi turadi. Tasavvufda Orif deb haq ma'rifatiga intilgan odamga aytildi. Oriflar esa ikki olamga ruhan safar qiladilar. Ana shunday hayotbaxsh g'oyalar ham shoир she'rlarida o'zining badiiy talqinini topgan.

Naqshbandiylikning boshqa bir shiori “Xilvat dar anjuman” bo’lib, o’sha mazmun shoir nazmida shunday ifodalanadi:

Намегуям либоси факир ба бар гиру шухрат кун,

Сар аз пироҳан ба ҳалқ, берун ору хилват кун.

Mazmuni: Faqr libosini kiyib, shuhrat top demayman. Ko’ylakning yoqasidan boshingni tashqari chiqarib, xalqqa ko’ringin-u, xilvatda bo’l.

Xulosa qilib aytganda, shoir asarlarida Naqshbandiya tariqatining ilg’or aqidalari hayotiy dastur sifatida talqin qilinib, o’quvchini ilohiy manaviyatning rangin va shukuhli olamga yetaklaydi.

Shavkat Buxoroiy g’azallarida rindlik, qalandarlik g’oyalarining ta’siri ham ko’zga tashlanib turadi. Shoir “rind”, “zohid”, “mayparast” so’zlari orqali erksevarlik g’oyalari, zamona nosozliklaridan ezilgan dilining izardorlarini, “qashshoq” hayotga nisbatan bo’lgan alamli noroziliklarini bo’rttirib ko’rsatadi. Shoir g’azalliyotidagi ba’zi baytlarda rind obrazi ikki olamni ham nazariga ilmaydigan hayotsevar oshiq – inson sifatida tasvirlanadi:

Фифон сар кун, занчир, дар базми чунун, к-имшаб,

Димоф аз ўлаи оғози мутриб сўхта риндонро.

Mazmuni: Bu kecha junun bazmida fig’on boshla, ey zanjir, Rindlar dimog’i mutrib sozining shu'lalaridan kuygandir.

Tasavvuf ahli, xususan, rindlar va malomatiylar odamlardan ayb axtarishni qattiq qoralagandir. Avval o’z aybingni qidir, so’ngra boshqalar aybini, - deya nasihat qiladi dunyo ko’rgan shoir.

Malomatiya ahli va erkin fikrli rindlar tavakkulga ishonishgan. Tavakkul, tariqat maqomi singari sufiylik adabiyotida turlicha talqin qilinsa ham, barchasining mohiyati shundan iboratki, solik ertaning ishlarini unutib, hamma narsani haqqa havola qiladi-da, bugungi kun hayotini g’animat sanaydi. Shu jihatdan so’fiyni odatda “ibni vaqt” (ya’ni so’fiy faqat bugungi kun bilan tirik) deb nomlaganlar, zero, ertangi kun hali yetib kelgani yo’q va o’tgan kun qaytib kelmaydi. Bu borada shoir shunday deydi:

Гашта аз файзи таваккул пур зи неъмат хони мо,
Пухтааст аз оташи санги қаноат нони мо.

Mazmuni: Dasturxonimiz tavakkul fayzidan ne'matlarga to'ladir. Nonimiz qanoat toshining otashidan pishgandir.

Shoirning ichki olami ziddiyatlarga to'la. U gohida rind singari beparda so'zlar bilan dunyoni yer bilan yakson qiladi. Gohida malomatiylar kabi o'z qalbiga oro beradi-yu, zohirda nomaqbul ishlar qiladi. Goho shoir tasviridagi qahramon shunday holatga tushadiki, dili yolg'izlik va go'shanishinlikni, olam ahlidan yuz o'girishni xohlab qoladi. Shu yolg'izlikdan u go'yo hayotning mohiyatini qidirganday bo'ladi:

Ҳамсұхбати бо мардуми олам зарур нест,

Бегонагй чу ҳаст ба кас ошно мабош.

Берун марав зи гүшай зулмат сарой хеш,

Чу мили сурма дарбадари дидашо мабош.

Mazmuni: Dunyo odamlari bilan hämsuhbat bo'lishi shart emas. Begonalik bor ekan, birov bilan oshnolik qilma. O'zingning qorong'u (g'amxona) go'shangdan tashqari chiqma. Surmaning mili kabi begona ko'zlarda darbadar kezma.

Mazkur misradagi xilvatning majoziy ma'nolarini to'g'ri anglamok lozim. Bu o'rinda badbin kayfiyat, hayotdan etak silkish tuyg'usidan ko'ra, ortiqcha dahmaza, g'alamislikdan yiroqda turish mayli balandroq ko'rindi. Odamlar o'rtasida qanchalik ko'p yurilsa, dunyoviylik xirsi shu qadar balandlashadi, hoyu havas jazavaga keladi. Fikrimizcha, go'shanishinlikni ana shu mazmunda qabul qilmoq maqsadga muvofiqli.

Malomatiylar odamlarga ehson va erkinlik, rohat yetkazuvchi ishlar bilan shug'ullanadilar, o'z hollarini esa boshqalardan pinhon tutardilar. Qalandarlar "janda" deb ataluvchi jun libos kiyib yurardilar. Shavkat Buxoroiy o'zining pashinapo'sh (jun libos kiyuvchi) bo'lganini asarlarida takror-takror tilga oladi.

Shuning uchun qalandardarvesh zohiri joma-yu janda bo'lsa ham uning asli ma'rifati uyg'oq dil deyishadi:

Аз либоси аҳли олам кардам қатъи назар,
Чу нигоҳ бодаш зи мичгон хирқаи пашминам.
Нестам аз маърифат холӣ, ки монанди садаф,
З-ин гуҳар лабрез бошад устухони синаам.

Mazmuni: Jun xirqamga nigoh tushgach, olam ahli libosidan yuz o'girdim. Sadaf gavharsiz bo'limgani kabi ma'rifatdan xoli emasman. Bu gavhardan ya'ni ilohiy ma'rifatdan ko'ksim ustuxoni toshib ketadi).

Tariqat lug'atlarda "yo'l" ma'nosida keladi. Tasavvufda u shunday bir manzilki, nishoni qalbning to'g'riliqi va jilovlangan nafs bo'ladi. Lekin solik haqiqatga yetishdan oldin tariqat manzillarida "maqomot" deb ataluvchi turlituman zinalarni bosib o'tishi kerak. Bu bag'oyat murakkab va o'ta mashaqqatli jarayondir. Solik uni jiddiy ruhoniy va jismoniy mashqlar, ilm-u zikr yo'lidagi izlanishlar bilan bosib o'tadi. Shavkat ayni pillapoyalarni tajribada bosib o'tgani uchun, uning satrlaridagi badiiy ifoda g'oyat ishonarli chiqqan. Shoир she'riyatining yashovchanlik siri ham shundadir.

Shavkat Buxoroiy meroesining ma'lum bir qismini qasidalar tashkil qiladi. Ular 12 ta. Qasidalar 18 baytdan 112 baytgacha. Demak, shoирning qasidalari an'anaga mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin, chunki qasidaning misralari soni odatda 20 dan ortiq bo'lib, 100 misradan ortiq qasidalar ham bor.

Shakl jihatidan qasidaning markaziy elementi qofiyadir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Shavkat Buxoroiy qasidalari an'anaviy shaklda, ya'ni uning *aa*, *ba*, *va*, *ga* kabi an'anaviy qofiyalangan.

Vazn jihatidan qasida odatda hazaj, ramal, mutaqorib va hokazo bahrlarda aytildi. Shavkat Buxoroiy qasidalari asosan shu bahrlarda yozilgan.

Bo'g'inlar soni bo'yicha qasida tavil janrlari guruhiга kiradi, chunki qasidadagi bo'g'inlar soni odatda 12-13 dan ortiq bo'ladi. Bu yerda Shavkat Buxoroiy qasidalari asosan 14-16 bo'g'indan iborat. Shoир qasidalari mavzu

jihatdan madhiya, shikoyat va maqtovga mansub. Quyidagi bayt bilan boshlanadigan qasida Imom Rizoni madh etishga bag‘ishlangan:

Азбаски рехт ранги чунин бар сарам ҳаво,

Савдо ба пой баст зи мағзи сарам ҳино (130:1-7).

Quyidagi qasida esa shikoyat mavzusida yozilgan:

Баски дорад нотавонам даври чархи бевафо,

Мешавад тӯфони ман чун коҳ оби қаҳрабо (130:7-8).

Quyidagi qasida esa Mirzo Sa’duddin maqtoviga bag‘ishlangan:

Дидаамро дидани доғи чунун бахшад зиё,

Дорад аз дуди нигоҳи гарм чашмам тӯтиё (130:8-11).

Muqaddimada aytganimizdek, shoh Ismoil va podshoh Tahmosp ijodkorlarni Ali ibn Abu Tolib, Imom Hasan va Imom Husayn manqabalarida, Karbalo dashtidagi voqealarda qasida va marsiya yozishga majbur qilganlar. Bizga ma'lumki, Shavkat Buxoroiy umrining ikkinchi qismi Eron shaharlarda o'tgan. Va tabiiyki, u ham shu oilani madh etib she'rлar yozgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadigan qasida Ali ibn Abu Tolib oilasini maqtab bitilgan:

Шабнами ташналаб зи нав сероб,

Марҳабо офтоби оламтоб (130:15-18).

Shoirning ahvoli bilan bog‘liq holiya qasidasi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ошёнро задам оташ, зи гулистон рафтам,

Кардам аз барги сафар болу зи бўстон рафтам (130:32-35).

Shavkat Buxoroijuning faxriy qasidalari quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Баски чўшад шўълаи ҳал карда аз минои ман,

Шишаро фаввораи оташ кунад саҳбои ман (130:35-37).

Шоми май мушкин саводи сояи минои ман,

Субҳи гул мавчи сафои гавҳари дарёй ман (130:37-40).

Shoirning bir qasidasi quyidagi faxriya bilan boshlanadi:

Ҳафт пушти ман зи ҳам чун осмонҳо бартаранд,
Мекунад афлок фахр аз нисбати обои ман (130:38).

Shavkat Buxoroiy qit'a janrida ham ijod qilgan. Undan 5 ta qit'a bizgacha yetib kelgan. Qit'alari unchalik katta emas, ular 2 baytdan 4 baytgacha. Ularning aksariyati mavzu jihatidan hayot falsafasi masalalariga bag'ishlangan:

Орзуи Ҳинд бисёр аст, дар хотир маро,
Гар равад ранги ҳинояш, ман ҳам аз худ меравам.
Тирахтиҳои ман камтар набошад аз касе,
Соя гар рафт аз қафояш ман ҳам аз худ меравам.
Дар тилисми зиндагонӣ чун хубобам аз қафас,
Сехр агар шуд дар ҳавояш, ман ҳам аз худ меравам (130:374).

She'riyatning "kichik" janrlari ichida g'azaldan keyin shoirlar ko'p murojaat qilgan ikkinchi janr ruboiyidir (112:54). Bu davr adabiyotida qadimiy janrlardan biri ruboiy ham o'z mavqeini saqlab qoldi. Buni Shavkat Buxoroiy adabiy merosida ko'rish mumkin. Shoирning fors, tojik va Sharq adabiyoti an'analarini asosida yaratilgan she'rlar to'plamida 21 ta ruboiy bor.

Ruboiy qofiya jihatidan ikki xil: a) Xos ruboiy, qofiyasi *aaba*; b) tarona ruboiy, qofiyasi *aaaa* tarzida bo'ladi .

Shavkat Buxoroiyning ruboilyari asosan xos ruboiyidir:

Биншин ба замин, ба ҷархи гардон манишин,
Яъне, ки ба ғайри хоксорон манишин.
Базмest ҷаҳон, ки остонаш садр аст,
Боло манишин, аз ҳама поён манишин (131:149).

Shoir ruboilyari til jihatidan unchalik sodda emas, ya'ni an'anaga ko'ra xalq tiliga yaqin emas. Shoir ruboilarida ham yangi uslubning murakkabligi yaqqol seziladi:

Ориф ки бувад ростиyaш ҷодаи роҳ,
Шуд аз қасрат ба сири ваҳдат огоҳ.
Сад шамъ ба ҳатти мустақим аст,

Як шамъ намояд ба маҷозат нигоҳ (130:429).

Ruboiy, asosan, xalq yoqtatlari asosidagi hazaj vaznining 24 turida yaratilgan. Biroq ruboiyda bo'g'inlar ko'p emas. Ular 12 dan 13 gacha bo'g'lnlardan iborat. Shavkat Buxoroiy ruboiylari ham an'anaviy ruboiy uslubida yozilgan. Adib ruboiylardagi bo'g'inlar ham 11-13 bo'g'indan iborat.

Bobning birinchi qismida ta'kidlaganimizdek, Shavkat Buxoroiy ijodi janr va kompozitsion jihatdan davr shoirlaridan farq qiladi va ular asosan fors-tojik adabiyoti an'analariga asoslanadi. Shavkat Buxoroiy hind uslubidagi ijodkorlarga ergashgan va o'zi ham bu uslubning yetuk namoyondasiga aylangan. Bu borada shoir shunday deydi:

Чун қалам ангуш нагузорам ба ҳарфи хеч кас,

Нест, кам аз ҳарчи ба чо пешаи ман даҳли ба чо (130:16)

Shoir asarlarining mavzu va mazmuni turlicha. Ular orasida falsafiy masalalar, hasbihol, dunyoni qoralash, moddiyat ahliga begonalik va yolg'izlik, nafsni tarbiyalash, hayot dard-u iztiroblaridan shikoyat qilish, do'st va yurtdan ayrilish, so'z ahlining befarqligi, poklik, qanoat, yuksaklikka targ'ib qilish kabilalar bor. Shuningdek, jonkuyarlik, muhabbat va ishq ta'rifi, halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, uzlatni targ'ib qilish va darveshlik qiyofasini badiiy tasvirlash kabi jihatlar bilan adib o'z mahoratini namoyon qilgan.

Shavkat Buxoroyning o'y-fikrlari, noroziliklari ham o'zi yashagan davr, mavjud odamlarning ahvoli,adolatsizliklarning ko'zgusidir. Shoир hukmdorlar ijod ahlini behurmat qilgan bir davrda yashadi. Chunki ular faqat mansab va martaba, davlatmand bo'lish uchun o'zaro kurashdilar. Bunday tartibsizlik va nizolar jamiyatning boshqa qatlamlari, ayniqsa, ijodkorlar ruhiga katta zarar yetkazadi. Shavkat Buxoroiy ham shunday holga tushib, qashshoqlik va faqirlikning achchiq-chuchugini totgan va yaxshi bilgan:

Нони хушке шуд, Шавкат, ба ҷаҳон қисмати мо,

Косай об ба меҳмонии мо механдад (129:60).

Ta'kidlaganimizdek, Shavkat Buxoroiy ijodida o'z hayotini tasvirlashga bag'ishlangan ya'ni hasbi hol mazmunidagi g'azal, qasida, she'rlar ko'p.

Shavkat Buxoroiy g'azallaridan birida yaxshi hayot kechirishni "rohat gul'i"ga qiyoslaydi va o'sha kun hayotini "dunyo gul'i"ga o'xshatadi. So'ng bu bog'dan, ya'ni bugungi hayotdan umid gulini terish juda qiyin, deydi. Chunki bu dunyoda rohat o'rniqa faqat baxtsizlik bor. Shoир o'z maqsadini oydinlashtirish uchun masal san'atidan ham foydalanadi. G'azalning bir bayti:

Гули роҳат чӣ ҳоҳӣ аз гулистони чаҳон Шавкат,

Ки чои гул аз ин гулзор хори по ба даст ояд (129:110).

Shoир dardining chegarasi yo'q. U hayotdagи noxushliklarni kuzatadi, xulosa chiqaradi. Zamonaнing notinchligi uni bezovta qiladi, azoblaydi. Shavkat Buxoroiy bu holatni tasvirlab, insoniy mehr-muhabbat va oqibatning yo'qligi, odamlarning bir-biriga adovat bilan munosabatda bo'lishi, natijada xalq ro'zg'orining achchiq, chidab bo'lmas holga kelishi haqida so'zlaydi. Shoир bir dunyo yashirin dard bilan ushbu so'zlarni aytadi:

Мардумӣ, Шавкат намебинам зи абнои чаҳон,

Ман, ки доим одамият дидам аз тасвирҳо (129:71).

Shavkat Buxoroiy asarlaridagi g'oyaviy mazmunning qiziqarli jihatlaridan biri shundaki, u jamiyatdagи shaxslarning xatti-harakati va shu bilan bog'liq zamona vaziyatini mantiqiy munosabatda she'riyat ipiga tortadi. U jamiyatdagи tartibsizlikni alohida ko'rmaydi balki, unga mansub insonlar hayoti bilan mustahkam uyg'unlik va bog'liqlikda ko'radi. Binobarin, shoир jamiyatdagи alohida shaxslar odob-axloqi haqida gapirganda, zamona axloqini ham nazarda tutadi.

Kamtarin shoир asossiz kibrni yoqtirmaydi. G'azallaridan birida shunday deydi:

Лаби ин ҳоқдон шуд ҷарб аз мағзи сари шоҳон,

Намеафтат мағрурон зи фикри пурғуруриҳо (129:96).

Hassos shoirning yuragi, xalq dardi bilan uradi, uning og‘riqlarini haqqoniy tasvirlash uchun doimo izlanadi. O‘zining she’rlaridan birida xalq ahvoli haqida gapirar ekan, shunday deydi:

Берун наравад зи дилам решаҳои ғам,
Чавхар зи теги оинагӣ мешавад чудо (130:1).

Ta’kidlash lozimki, Shavkat Buxoroiy g‘azallarda zamondan norozilik mavzusi kuchli. Quyidagi bayt fikrimizni tasdiqlaydi:

Азбаски рехт ранги чунун бар сарам ҳаво,
Савдо ба пой баст зи мавчи сарам хино (130:1).

Shoir vatandan uzoqlashib, vatan orzusini mushkka qiyoslagan. Chunki mushk kiyiklarning bir turi qornida hosil bo’ladigan va shifobaxsh xususiyatlarga ega bo’lgan qora aromatik moddadir. Vatan dog‘i – davosi mushk bo’lgan Shavkat Buxoroiyning ko’nglidagi yara. So’ng shoir o’z diyoridagi yaxshi ahvolini sog‘inch bilan eslaydi:

Зи инпештар, ки тирагин ғурбатам набуд,
Хоки ватан ба дидаи ман буд тӯтиё.
Лабрез доштам қадаҳ зи бодаи умед,
Айшам ба ком буд, сипехрам ба муддао.
Пайдо набуд зиндадиле ҳамчун ман, ки буд,
Аз обрӯи хеш маро чашмаи бақо (130:6-7).

Yuqoridagi parchaning birinchi misrasida Shavkat Buxoroiy o‘zining vatandagi kunlarini eslab, vatan tuprog‘ini onaga qiyoslagan. Qasida davomida shoirning qora kunlari va vatanini tark etishining umumiy manzarasi mavjud, keyin Imom Rizoni maqtash qismiga o’tiladi. Shoirning kamolot va keksalik davri g‘ariblik va nochorlikda o’tgani bois, uning she’rlarida hayot g‘ildiragi nosozliklariga e’tiroz ohanglari ko’p uchraydi:

Зи гардун рангзардиҳо қашид азбаски чони ман,
Саропои танам шохи гули зард аст пиндорӣ (130:10).

Расотар бошад аз сарви гулистан дуди охи ман,

Зи тавки қумриён баргаштатар баҳти сиёҳи ман (129:276).

Shoir ijodida muhim o'rin egallagan yana bir mavzu – zamon tanqidi, zamon odamlarining so'zbozlik va hasadgo'yligi, vatan va do'stlar xotirasi, begona yurtdagi hayotning achchiqligidir. Shavkat Buxoroiy she'rlarida zamon va undagi shaxslardan norozilik, ezgulik va adabiyot ahlining xo'rланishi, shikoyati kabilarning badiiy ifodasi katta o'rin tutgan. Otashnafas shoir umr bo'yи hasadgo'ylar so'zidan ozor chekib yashadi. Bu haqda o'z she'rida shunday yozadi:

Кай тавон аз ҳарфи сарди душманон осуда шуд,

Барги гул натавонад аз боди ҳазон осуда шуд (129:167).

Фифон зи хубсати ахли чаҳон, ки ин мардум,

Намедиҳанд чавоби саломҳо (129:94).

Monografiyamizning birinchi bobida shoirni mazax qilib, qalbini og'ritgan insonlar sabab u o'z qadrdon yurtini тark etishga majbur bo'lганини tilga olgan edik. Hatto uni iroqlik Shavkat she'rlarining o'g'risi sifatida ham tanqid qilishadi:

Ҳеч кас аз ахли дил тасдики ҳарфи мо накард,

Гашт чўби дор сабз аз гиряни мансури мо (129:68).

Ammo shoir ahli ilm uning haqiqatini keyinchalik tushunib, qadrlashiga ishongan:

Шўълаи овози ман равшан бувад баъди ҳалок,

Нолаи гармам ба чои ўзла месӯзд ба хок (131:119).

Shoir o'z she'rlarining hasadgo'ylar tanqidi va tuhmatiga duchor bo'lishi sababini bir necha satrda shunday izohlaydi:

Айбгўихои ҳалқам мекунад соҳибхунар,

Миннати бисёраз ахли ҳасад бошад маро.

Гаштам, Шавкат, биёбонмарги сахрои чунун,

Чашми оху қолаби хишти лаҳад бошад маро (129:94-95).

Shavkat Buxoroiy hayotining katta qismi, umrining so'nggi damlari vatanidan, do'stlaridan uzoqda o'tgan. Shuning uchun ham shoir she'rlarida vatan zikri, jamiyatga begonalik, yolg'izlikdan shikoyatlar ko'p uchraydi. Ko'pincha iste'dodli adib "ба каф сарриштаи ғурбат, ба дил ёди ватан дорам" (Mazmuni: qo'llimda g'am tugmasi, qalbimda Vatan yodidir) deb dili to'lib nola qiladi, xo'rsinadi:

Ба каф сарриштаи ғурбат, ба дил ёди ватан дорам,

Бувад ҳамчун гухар, чашме ба рӯ, чашме ба дунболам (131:122).

Shu bois ham shoir she'rlarida Vatan, do'stlar xotirasiga bag'ishlangan, sog'inch tasvirlangan baytlar nihoyatda ko'pdir:

Ғубори хотир аз хоки ватан берун барад моро,

Шавад чун мил гардолуд, дил аз сурмадон гирад (129:210).

"Хеч ганчэ бех аз хунар нест" – "Hunardan afzal xazina yo'q", deydi ulug'lar. Shavkat Buxoroiy she'riyatida hunar va uning ahlini madh etish, uni o'rganishga badiiy jihatdan targ'ib qilish va rag'batlantirish muayyan o'rinni tutadi. Shoirning o'zi yoshligida bir muddat otasining do'konida sarrof bo'lib ishlagan va maosh bilan ta'minlagan. Shuning uchun ham shoir hunarni dunyodagi eng muhim narsa deb biladi va uni shunday ta'riflaydi:

Набошад дар ҷаҳон ширинтар аз шаҳду хунар шаҳде,

Ба ҷӯи шир агар Фарҳод афтад, дар шакар ғалтад (129:210).

Dunyo ko'rgan shoirning fikricha, hunarmand hech qachon kamlik ko'rmaydi. Halol mehnati, barakali hunari orqasidan hamisha rizqi ro'zi ziyoda bo'lib, omonlikda umr kechiradi. Shoir g'oyalari quyidagi misralarda ham o'z ifodasini topgan:

Хунарварро бувад доим зи пахлӯи хунар роҳат,

Ки нони осиёбон тар зи оби осиё бошад (129:207).

Buyuk adib nazaridan dehqonning mashaqqatli mehnati ham chetga qolmagan. Shuning uchun u saxovatli dehqonni maqtab, mard dehqon qo'lidagi

bug'doy donasi halol mehnat tufayli xirmonga aylanishini aytadi. Shoир o'z fikrini masal san'atidan foydalangan holda badiiy tasvirlashga muvaffaq bo'ladi:

Дона хирман мешавад дар дасти дехқони карим,

Мекунад абри баҳорӣ бοғи насрин қатраро (129:102).

Fors-tojik adabiyotida faxriya qadimiy tarixga ega bo'lib, she'riyat mohiyatini anglashda muhim o'rин tutadi. Ijodkorning o'z ijodidan faxrlanishi buyuk baxtdir. Bu holat esa shoирning o'z ijodiy faoliyatidan qoniqish hissi sifatida paydo bo'ladi.

Shuni esda tutish kerakki, Shavkat Buxoroiy o'zi yashab o'tgan davrda so'zi o'tkir, sehrli qalam sohibi, yangicha tarz, hind uslubining mashhur namoyandasи sifatida shuhrat qozongan, she'rlari ham xuddi shu davrda rivojlanib, xalqimizning e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Maleho Samarqandiy ta'riflaganidek, uni "xalloq-ul-maoni", o'z davrining yagona shoiri, yangi fikrli shoir deb bilishgan. Shuning uchun shoir she'rlarida faxriyaning ham ma'lum bir mavqeи bor. Shavkat Buxoroiy o'z ijodidan faxrlanib, quyidagi baytда buni yuksak badiiy san'atlar orqali bayon etadi:

Мешавад маҳбус чун гул маънни рангин зи ман,

Ҳам чу ман, Шавкат, кучо ҳарф оғарин пайдо шавад (129:193).

Shavkat Buxoroiy iftixor ila she'rlarining shuhrati va ovozasi Yamanga yetganini ta'kidlaydi:

Шунидаанд бутони Яман қаломи маро,

Навиштаанд ба оби ақиқ номи маро (129:28).

Shoирning yuksak mazmunli ijodidan g'urur tuyg'usini ko'rsatadigan bunday misralar she'riyatida nihoyatda ko'p bo'lib, ular asosan g'azal va qasidalarining so'nggi misralarida namoyon bo'ladi.

Ilm insonlarni yaxshi xulq-atvorga chorlaydi, yomon ishlardan qaytaradi. Kim axloq ilmini o'rgansa va unga amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda hurmatli bo'ladi. Yaxshi axloqli insonlar dushmanlarini do'stga aylantira oladilar. Binobarin, inson hayvondan ilm, shirin so'z, chiroyli xulq, go'zal fikr, bebaҳo

axloq bilan ajralib turadi, deb bejiz aytishmagan. Yuqoridagi so'zлarning zamirida poklik yotadi. Poklik, ilm qadrini bilish, dinini sevish, vaqtini bekorga o'tkazmaslik, Alloh taologa sajda qilish, ota-onaning so'ziga itoat qilish, odamlarni hurmat qilish va to'g'ri gapirish, saxovat va muloyimlikni targ'ib qilish, ochiqko'ngil va kamtar bo'lism, bularning barchasi yaxshi insomning xarakter xususiyatlaridir. Bunday xulq-atvor, ezgu amallar mumtoz adabiyotda diniy-tasavvufiy g'oyalari orqali ham targ'ib va tashviq qilinadi.

XVII asr adabiyotida diniy va so'fiylik g'oyalari chuqur ildiz otganini alohida ta'kidlash lozim.

Samarqandlik Maleho o'z tazkirasida zohidlik tur mush tarzi va ijodidagi "yakkaxudolik" xarakteri bilan diniy-tasavvufiy oqim adabiyotiga mansub bo'lgan bir qancha shoirlarni tilga oladi. Tasavvufiy asarlar ham shu davrda ko'p yozilgan. Jumladan, Sulton Husayn Mahruqni "Rang-u bo'y" (Rang va hid) asari ta'sirida Amir Husayni Sodotning "Nuzhat-ul-arvoh" kitobi yaratilgan. Bu tasavvufiy asar Samarqandlik Maleho aytganidek, so'fiylik ruhida yozilgan (112:31). Aytish kerakki, bu davrda nafaqat so'fiylik asarlari yaratilgan, balki shoirlar o'z qasida, g'azal va rivoyatlarida ham diniy-tasavvufiy g'oyalarni tarannum etganlar. Buni Shavkat Buxoroiy she'riyati ham to'liq tasdiqlaydi.

Samarqandlik Maleho yozishicha, Shavkat Buxoroiy umrining ma'lum bir qismi qalandarlik bilan o'tgan: "Дар мулки Эрон ба шеъргўй соҳибшўҳрат, лекин худ рамзфаҳмони сулуки хафтоду ду миллат. Дар бараҳ аз бенавой либоси тачарруд. Аз ошноии мулоқоташ ба аҳли дунё тамарруд. Дар ҳар баҳияи хирқааш пинҳон сад шўри Мансур. Чўби дасташ ҳам асои Мусою ҳам шаҷараи Тур. Кулоҳаш дар баҳри таҷрид хубобест ҳолӣ аз ҳавои нихват ва шикасти ҳар гўшааш ангуштнамои тарки шўҳрат..." (58:106).

Shavkat Buxoroiy g'azallarida ilohiy g'oyalari talqini, Yaratganni madh etish, uning fazilatlarini ulug'lash o'zining badiiy ifodasini topgan:

Бенишонй, ки на фалак бе ўст,

Ҳамчу дилҳои ошиқон бетоб.

Бахри ў офтобу моху нучум,

Зеру боло раванд чун дўлоб... (130:15-16).

Shoirning fikricha, Xudoning nuri nafaqat tashqi dunyoda, balki inson qalbida ham mavjud:

Боз кун раҳнаи дил нури худоро дарёб,

Чок зан пироҳани хеш ҳаворо дарёб (130:140).

O'tganlarni yaxshilik ila eslash insoniylikning buyuk sifatlaridandir. Ularning ijobiy ishlarini davom ettirish esa barcha insoniy fazilatlaridan ustunroqdir. Bunday an'ana buxorolik tariqat va din peshvolari faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Xoja Yusuf Hamadoniy, Xojai Jahon Abduxoliq G'ijduvoniy, Xoja Orif Mohitob, Xoja Anjir ar-Revgariy, Xoja Azizoni Ali Rometaniy, Xoja Hazrati Boboyi Samosiy, Hazrati Mir Kulol va Hazrat Bahouddin Naqshbandning ta'lomitlari va ul zoti oliylarining poklik, rostlik, qanoat, sabr, shukur va Ollohnin tanishdagi buyuk da'vatlari qariyb ming yildirkim ijodkorlar uchun dasturulamaldir. Muhammad Is'hoq Shavkat Buxoroiy XVII asrda yashab ijod qilgan g'azalnavis shoirdir. Adabiyotda hind uslubining namoyandasasi sifatida ma'lum va mashhur. Shoirning merosidan ma'lum bo'ladiki, she'rlari mavzu jihatdan rang-barangdir. Uning asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, u Xojagon-Naqshbandiya ta'lomitidan yaxshi xabardor ekanligining guvohi bo'lamiz. Shavkat Buxoroiy ijodida Xojagon-Naqshbandiya tariqatidagi "dil ba yoru dast ba kor" yoki "xilvat dar anjuman" singari asosiy g'oyalar o'z badiiy ifodasini topgan:

Намегўям либоси факир ба бар гир-у шуҳрат кун,

Сар аз пироҳан ба ҳалқ берун ору хилват кун⁸.

Mazmuni: Faqir libosini kiyib shuhrat top demayman, ko'ylakning yoqasidan boshingni tashqari chiqarib, xalqqa ko'ringinu, xilvatda bo'l. Yoki:

Шавкат хомуш бош, забон маҳрами ту нест,

Биқушо забони тил, ки кунй арзи муддао.

Ошиқ, ки роҳ ба хилвати маъшуқ мебарад,

⁸ Шавкат Бухорий. Девони ашъор. – Душанбе: Дониш, 1987. – 245-бет.

Арзи ниёзро ба хомуши кунад адо⁹.

Mazmuni:

Shavkat jim bo'l, til sening do'sting emas,
Dil tilini ochgin, arzi muddaongni aytsang.
Oshiq kim, ma'shuqa xilvatiga yo'l olib boradi.
Arz-u niyozini xomushlik (jimlikda) qilay ado.

Shoir mazkur tariqatning davomchisi sifatida, bu ta'limot mohiyatini oddiy insonlarga yetkazish maqsadida o'z qarashlarini turfa badiiy tasvir vositalari va rang-barang fikrlar asosida xalqona tilda bayon qilgan. Allohni tanishning eng yaqin yo'li – zikri xufyadir. Hazrat Mahmud As'ad Jo'shondan so'raydilar. "Ustoz Madinayi Munavvarada o'qilgan bir namozning boshqa joyda o'qilgan bir namozdan ming barobar savobi ortiq ekan. Masjidi Haromda, Makkayi Mukarramada, Ka'baning atrofida o'qilgan bir namozning esa boshqa joylarda o'qilgan namozga nisbatan yuz ming barobar savobi ko'proq ekan. Shunga o'xshash yana savobi bisyor amallar bormi?.." "Ha, bor!", dedilar, - "bir inson Allohni zikr qilaverib qalbi zikrullohga to'lib toshadi. Qalbi ham zikr qila boshlaydi. Qalb zikr qilganda to'rt million to'qqiz yuz mingta savobga noil bo'ladi". Bunday savob egasi esa birovni ranjitmaydi. O'zim bo'lay deb shaxsiy manfaatini boshqalardan ustun qo'ymaydi. Balki o'zini va o'zgalarni baxtli qilishga intiladi. Bunday shaxslar ma'nан yetuk insonlar bo'lib, qalblari har xil marazlikdan tozadir. Shayxlar buyurganlar: "Qalblar Allohning zikri bilangina mutma'in bo'ladi – orom oladi". Qalbi orom olgan kimsa birovni xafa qiladimi? Yo'q, aslo. U faqat butun vujudi bilan insonlarga yaxshilik qilishni niyat qiladi. Parvardigorga bo'lgan mehr-muhabbatи ziyoda bo'ladi va atrofdagilarga rahmdil bo'ladi. Shoir shuning uchun insonlarni Haqqa yaqin bo'lishini istaydi:

Зинҳор аз худ машав дуру ба ҳақ наздик бош,
Худ бувад кас азраги гардан ба ҳақ наздиктар¹⁰.

⁹ Шавкат Бухорий. Девони ашъор. – Душанбе: Дониш, 1987. – 7-бет.

¹⁰ Шавкат Бухорий. Девони ашъор. – Душанбе: Дониш, 1987. – 245-бет.

Mazmuni: Aslo o'zingdan uzoqlashma-yu, Haqqa yaqin bo'l. O'zi bo'lar kishi bo'ynidagi tomiridan ham Haqqa yaqinroq.

Ikki dunyo borligidan xabardor bo'lib, o'zidan va Haqdan uzoqlashmasdan, halol mehnat qilib umr o'tkazish sharafdir. Bu hol insonni har qanday nokaslikdan, hasad-u g'arazdan, kina-yu adovatdan, fitna-yu fasoddan poklaydi. Shavkat Buxoroiy odamlarni ana shunday yaxshi fazilatlar egasi bo'lismeni xohlaydi. Ularni Haqni esdan chiqarmaslik va shu bilan birga o'zining ahvoldidan ham xabardor bo'lismiga chaqiradi. Agar inson yer yuzida fisq-u fasod va qalbi to'la hasad bilan yashasa, uning hayvondan hech farqi qolmaydi. Bunday inson ma'naviyatdan yiroq. Ma'naviy jihatdan qashshoq kimsa esa qanday maqsad bilan, nima uchun yashayapti, bilmaydi. Natijada o'ziga va o'zgalarga g'am-tashvish orttiradi. Agar inson ma'naviy jihatdan boy bo'lsa, Haq buyurganlariga amal qilsa, ikki dunyo saodatiga erishadi. O'zini va o'zgalarni baxtli qiladi. Har bir qiladigan harakatining natijasini o'yaydi. Chunki Alloh bizga bandalikni nasib qilgan. O'n sakkiz ming olamning eng buyugi va azizi Hazrati Insondir. Shoир bu holdan insonlarni quyidagicha ogohlantiradi:

Бувад зи оқибати кори хештан огох,

Касе, киқисмати имрўз баҳри фардо хўрд¹¹.

Mazmuni: O'z jismining oqibat ishidan xabardor kishikim, Erta qismatini bugun o'ylab ko'rgan.

Naqshbandiya ta'limoti vujudga kelgunga qadar bir qator tasavvufiy silsilalar mavjud bo'lib, ular Haqqa yetishning xilma-xil yo'llarini targ'ib-tashviq qilib keldilar. Bu silsilalarga ergashuvchilarning ko'pchiligi odamlardan chetlashish va xilvatnishinlikni o'z ta'limotlarining asosi deb bilardilar. Shoир o'z she'rlerida Xojagon-Naqshbandiya tariqatining "Safar dar Vatan" shiori mazmunini ham aks ettiradi:

Сафарй гаштаму ва аз базм нарафтам берун,

Рафтам аз хеш, чу паймона мастон рафтам¹².

¹¹ Шавкат Бухорий. Нури аср. – Душанбе: Ирфон, 1986 – 149-бет.

Mazmuni: Safar qildim, lekin bazmdan tashqariga chiqqanim yo'q. Maydan sarxush bo'lib, o'zimdan ketdim. Bu yerda shoir qo'lidagi paymona ilohiy may bilan to'la. Bizningcha, shoir yuqoridagi baytda jismga safar qilishni nazarda tutgan. Ya'ni inson o'z vujudiga safar qilar ekan, u o'zidagi har xil illatlarni tark etadi. O'zligini anglashga harakat qiladi. Donishmand buyuradi: "Mo'minning mo'minligini ko'rsatuvchi sifati shuki, har on, har soat va har kun yomon fe'llardan poklanishga tirishadi. Kechmishda sodir etgan gunohlari tufayli nadomat his qiladi. Mol-dunyo topish xayollariga berilib ketmaydi. Foydasiz va besamar narsalar bilan mashg'ul bo'lmaydi. Allohga oid vazifalarini ixlos bilan ado etadi va ko'z-ko'z qilishdan saqlaydi"¹³. Bunday harakatda bo'lgan inson, albatta, o'zining go'zal amallaridan zavqlanadi va sayr-u suluk qiladiki, bu tasavvufda ilohiy jazba deyiladi. Xojagon-Naqshbandiya ta'lilotining markazida komil va orif inson masalasi turadi. Haq ma'rifatiga intilgan kishi orifdir. Oriflar esa ikki olamga ruhan safar qiladilar. Ana shunday hayotbaxsh g'oyalar shoir she'rlarida ham o'zining munosib badiiy talqinini topgan;

Ба як чо марди ориф мекунад сайри ду оламро,

Зи олам бехабар гардад, чу аз олам хабар гирад¹⁴.

Mazmuni: Orif kishi bir joyda o'tirib, ikki olamni sayr qiladi. Agar bir olamdan xabarsiz qolsa, ikkinchisidan xabar topadi.

Xojagon-Naqshbandiya tariqatining yana bir shiori "hush dar dam"dir. Mazkur ta'lilot odamlarni o'ylab so'zlashga va g'aflatga berilmasdan Allohn eslashedi. Ya'ni oladigan nafasimiz huzur-halovat ila bo'lsin, g'aflat ila bo'lmasin. Hazrat Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariy: "Hush dar dam, ya'ni bir nafasdan ikkinchi nafasga o'tish vaqtি g'aflat ila bo'lmasin. Oladigan har nafas Haq subhonahu taolodan xoli va g'ofil bo'lmasin"¹⁵, deganlar yoxud Hazrat Xoja Bahovuddin aytadilar: "Bu yo'lda asosan ishni nafas (fursat) ustida olib borish

¹² Шавкат Бухорий. Девони ашъор. – Душанбе: Дониш, 1987 – 7-бет.

¹³ Шавкат Бухорий. Девони ашъор. Матни илмий-интиқодӣ. Бо тасхех ва муқаддима. Чобулко Додалишов. – Душанбе: Дониш, 1987. – 634 с.

¹⁴ Шавкат Бухорий. Нури аср. – Душанбе. Ирфон, 1986. – 173-бет.

¹⁵ Шу китобдан олинган.

lozim, hayotning muhim vazifasi ila mashg’ul bo’la turib, xayolini o’tmishdan va kelajakdan ozod qilsin va oladigan nafasi zoe ketmasligi uchun harakat qilsin”¹⁶. Shavkat Buxoroiy esa bu g’oyani quyidagicha targ’ib qiladi:

Беҳисобонро набошад роҳ ба девони вужуд,
Нашморад хар кас нафасро беҳисоби мекунад.
Шамъи бефонус, Шавкат мешавад охир хароб.
Хусни ў худро фано аз бениқоби мекунад¹⁷.

Mazmuni: Hisobsizlarga vujudni anglashga yo’l yo’q. Har kim oladigan nafasini sanamasa, hisobsizlik qiladi. Fonussiz sham, Shavkat, oxiri xarob bo’ladi, uning husni o’zini niqobsiz yo’q qiladi. Anglashiladiki, har bir nafasimiz azal kotibi tomonidan nazoratda va nafas olishdan tortib katta-kichik barcha harakatlarimizga diqqatli bo’lishimiz kerak.

Shavkat Buxoroiyning hayot yo’li va manbalarning darak berishicha, u (Samarqandlik Malehoning fikri: “Eronda kichikdan kattalargacha, gadodan shohgacha Shavkat Buxoroiy bilan suhbat qilishni xohlar edi” – Q.T., S.R) yashash tajribasi orqali komillikni o’zida mujassam etgan. Uning merosini o’rganish bizga nazmnинг nomalum qirralarini ochishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, shoir asarlarida Xojagon-Naqshbandiya tariqatining ilg’or g’oyalari hayotiy dastur sifatida talqin qilinib, o’quvchini ilohiy ma’rifatning rangin va shukuhli olamiga yetaklaydi.

Shavkat Buxoroiy ijodida rindiy va qalandariy g’oyalarning ham alohida o’rni bor. Shoir “rind”, “zohid”, “mayparast” so’zлари ostida o’zining ozodlik g’oyalalarini, zamonaadolatsizliklariga qalb isyonini, rangsiz qashshoqlik hayoti va zerikarli umriga achchiq noroziligini ifoda etgan. Shoir she’riyatining ayrim o’rinlarida rind siymosi hayotni sevuvchi, ikki dunyoga parvo qilmaydigan obraz sifatida badiiy tasvirlanadi:

Ҳиммат, эй зоҳиди риндон, ки налағчад поям,

¹⁶ Ҳазраткулов М. Тасаввуф. – Душанбе: Маориф, 1988. – 15-бет.

¹⁷ Шавкат Бухорий. Нури аср. – Душанбе: Ирфон, 1986. – 185-бет.

Шишаи май ба бағал санг ба домон рафтам (130:32).

Ayniqsa, tasavvuf ahli odamlarga tuhmat qilish kabi nomaqbul harakatni qattiq qoralaydi. Shavkat Buxoroiy dunyo ko'rgan shoir sifatida avval o'z aybingni, keyin o'zganining aybini ko'r, deb nasihat qiladi:

Бипўш аз айби кас чашму ту бин неку бади худро,
Ба рўи хештан гоҳе бизан дасти ради худро (130:356).

Malomatiya tariqatining namoyandalari va ozodfikr rindlar doim tavakkulga e'tiqod qilganlar. Tavakkul tariqat maqomi sifatida tasavvuf adabiyotida turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, barchasining mohiyati shundaki, so'fiy ertangi kunni unutadi, taqdirini Yaratgan izniga topshiradi, kundalik hayotni muhim deb biladi. Shuning uchun ham so'fiy odatda "ibni vaqt", "zamon o'g'li" deb ataladi (ya'ni so'fiy faqat shu kun bilan yashaydi), chunki ertaga yetib kelmagan va o'tmish qaytmaydi (155:49-50). Bu haqda shoir shunday deydi:

Гашта аз файзи таваккул пур зи неъмат хони мо,
Пухтааст аз оташи санги қаноат нони мо (129:100).

Мурғе, ки обу донаи ўаз таваккул аст,
Шавкат ба болои солики маҷзуб мепарад (129:185).

Shoirning ichki dunyosi qarama-qarshiliklarga to'la. Goh isyonkor bo'lib, achchiq, ayblovchi so'zları bilan dunyo ahlini g'azablantiradi, gohida beg'ubor qalb egasi sifatida o'z ichki dunyosini ma'rifat gullari bilan bezashga intiladi. Gohida shoir shunday holatga tushib qoladiki, qalb muvozanatiga erishish uchun dunyo ahlidan yolg'izlik, sukunat istaydi. Bu yolg'izlikdan u hayotning mohiyatini izlaydi:

Malomatiylar xayriya, ehson qilish, muhtojlarga yordam berishni kasb qilganlar. Ular o'z hollarini boshqalardan yashirgan holda oddiy kiyimda odamlar orasida yurishgan. Qalandarlar "janda" deb ataladigan pashmina kiyim kiyishgan. Shavkat Buxoroiy she'rlarida o'zi ham pashmina kiyganini qayta-qayta eslatadi. Shu bois darveshning tashqi ko'rinishda kiyimi jandadir, uning haqiqati esa

ma'rifatli uyg'oq qalbdir deya ta'kidlaydi shoir:

Shoir ko'pgina she'rlarida darveshlar kiyimi jandani kamtarinlik, faqirlik belgisi sifatida badiiy tasvirlaydi:

То хуш бувад ба ман чомаи аҳли замона сайр,

Аз хеш агар равам, намадпӯш меравам (129:261).

Tariqat lug'atda "yo'l" ma'nosini bildiradi, uning maqsadi qalbni isloh qilishdir. Biroq, solik haqiqatga yetib borgunga qadar tariqat bosqichlardan o'tishi kerak. Shu boisdan tariqat yo'lidagi inson oliv mavqega erishishdan oldin har bir maqomda ko'nglini tozalab, ma'naviy yuksalikka erishmog'i, ma'lum shartlar asosida qalb va ruhini tarbiyalamog'i lozim. Busiz solim komil bo'lolmaydi. So'fiy tariqat maqomlaridan to'liq o'tib, haqiqat bosqichiga yetadi va "orif" nomini oladi. Shavkat Buxoroiy o'z g'azallarida solikning tariqat manzillaridan o'tishini yuksak mahorat bilan badiiy tasvirlaydi:

Чони биноён ба манзил мерасонад хешро,

Гавҳари ғалтон ба соҳил мерасонад хешро.

Мӯ ба мӯ хомаи мӯ чодаи як сурат аст,

Солик ба сад раҳ ба манзил мерасонад хешро.

Ҳашри биноист гарди турбати Мачнуни мо,

Мушти хоки мо ба манзил мерасонад хешро.

Кай ба манзил мерасад солик чу роҳаш матлаб аст,

Толиби манзил ба манзил мерасонад хешро.

Мерасад шабнам ба хуршеди дурахшони оқибат,

Шавкат, охир то дари дил мерасонад хешро (129:41).

Shavkat Buxoroiy ijodida solikning tariqat yo'lidagi vara', zuhd, faqr, sabr, tavvakul, rizo kabi takomil bosqichlari o'zining badiiy talqinini topgan.

Shavkat Buxoroiy she'riyatida badiiy san'atlarning o'rni

Shoirning yuksak iste'dodini namoyon etish vositalaridan biri uning badiiy obraz va san'atlardan foydalanish mahoratidir. Adibning tavsif, tashbeh, majoz, istiora, tashxis, mubolag'a, lutf, hajv-u istehzo, humor, talmeh va boshqa badiiy vositalar yordamida yaratgan she'riyati kitobxonni o'ziga jalb qilib, ruhiyatiga ijobjiy ta'sir qiladi. She'riy san'atlar orqali adib o'z maqsadlarini yashirin, ayni paytda ta'sirchan va jozibali tarzda ifodalaydi. Noziktab' shoir Shavkat Buxoroiy mazmunli g'azal va qasidalar, dilga iliqlik baxsh etuvchi misralar yaratar ekan, badiiy san'atlardan mohirlik bilan foydalangan.

Ilmi bade'ga oid manbalardan yaxshi ma'lumki, she'riy san'atlar ikki guruhga bo'linadi: ma'naviy va lafziy san'atlar. Biz shoir she'rlarini badiiylik mezonlari asosida o'rganar ekanmiz, ana shu tasnifga amal qildik.

a) ma'naviy san'atlar: ochiq o'xshatishlar

Shavkat Buxoroiy she'rlarida bunday o'xshatishlar juda ko'p:

Саъйҳо кардам зи лаб, банди хамӯшӣ во нашуд,
Кард хун ин уқда чун табхола дандони маро (129:42).

Shoir aytadi: Labimdag'i sukunatni bo'shatish uchun qancha urindim, epolmadim, bu tugun tishlarimni uchuqdek qon qildi. Bu o'xshatishlar vositasida shoir maqsadini go'zal va ta'sirchan ifodalaydi. G'azalning bundan oldingi baytlarida shoir kundalik voqealar, hayotning murakkabligi haqida gapiradi, turmush qiyinchiliklaridan noliydi. Lekin bu yo'ldagi har qanday urinish befoyda ekanligini juda yaxshi biladi. Bularning barchasiga qaramay, yurak ozodlikka intiladi, lekin ertangi kunni o'ylashdan kelib chiqqan qalbdagi tugun ochilmaydi. "Kard xun in uqda chun tabxola dandoni maro" misrasida shoir asosli o'xshatish vositasida mavjud holatni mahorat bilan chizgan. Yurakdag'i tugun o'simta bo'lib qoladi, undan qon o'tmaydi va ichkarida to'planadi.

Shoir she'rlarida bunday yashirin o'xshatishlar ko'p bo'lib, birgina misol keltirish bilan kifoyalanamiz.

Yopiq o'xhatishlar asosan yordamchi vositalarsiz ifodalanadi va undan foydalanish shoirdan mahoratni talab qiladi. Shavkat Buxoroiy she'riy san'atning bu turiga ko'p murojaat qilgan:

Дур аз ту нашъаи май бошад азоб маро,

Занцири оташин аст мавчи шароб маро (129:45)

Mazkur bayt ilohiy muhabbatga bag'ishlangan g'azaldan olingan. Har bir bayt aniq va yashirin o'xhatishlarga to'la. Yuqoridaq baytda shoir o'zining ijodkori bo'l mish yagona ma'shuqasi oldida holatini bayon etadi va asosli o'xhatishlar bilan shunday ifodalaydi: sensiz va sening yoding bilan may ichib rohatlanish azobdir. Bu aziyat esa xuddi Majnunning bo'yniga zanjir tashlab tortganga o'xshaydi va har qachon may ichish mayli paydo bo'lishi bilan zanjir meni yana o'ziga tortib rohatlanishdan saqlaydi.

Bu kabi o'xhatishlar shoir qalamidan to'kilgan misralarni yanada ta'sirli qiladi, dilkash baytlari kitobxonni o'ziga rom qilaveradi. Shavkat Buxoroiyning ijod evolyutsiyasida u yaratgan obrazlar, qahramonlarining holatlari tasvirda murakkablashib boradi. Natijada kitobxonni hayratga solib, shoir maqsadini tushunishni bir necha barobar qiyinlashtiradi.

Ba'zan shoir bir misrada ikki xil o'xhatishni qo'llaydi. Masalan, quyidagi baytning birinchi misrasida aniq o'xhatish qo'llangan bo'lsa, ikkinchi misrada esa yopiq ta'kidli o'xhatish mavjud:

Тўтии мо худ ба худ чун вусма натавонад парид,

Абрўи хубон бувад болу пари парвози мо (130:48)

Metafora. Shavkat Buxoroiy metafora san'atidan ham ko'p foydalangan. Bu, bir tomonidan, shoirlar orasida metafora san'atining mashhurligi va ikkinchi tomonidan, shoirning uslubi ham bu san'atdan foydalanishni taqozo etgan. Hind uslubida so'zlarning lug'aviy ma'no teranligida murakkab ifodalaniishi va asosiy mazmunning yashirilishi juda muhim. Shuning uchun ham Shavkat Buxoroiy badiiy maqsadini majoziy so'zlar orqali juda mahorat bilan ifodalagan:

Тарошидем аз санги қаноат то қадах Шавкат,

Дигар набвад димогъи сўхбати моро мурассаъҳо (129:41)

Yuqoridagi baytda ma'no gavhari “sangi qanoat” “qanoat toshi” istiorasida yashiringan. Qoniqish toshi yo'q, lekin shoir o'z sodiqligining yuksak va barqarorligini ko'rsatish uchun bu ifodaga majoziy tarzda shunday “xarakter” beradi va shu vosita bilan o'z maqsadini ifodalaydi. Qanoat toshidan qadah o'yib olish hayotsevar shoirning sabr-toqati yuksakligidan dalolatdir. U fikrini badiiy bo'yoqlarsiz tasvirlab berishi mumkin edi. Lekin shoir o'z uslubining qonuniyatlaridan chetga chiqmay, shunday ifoda turini tanlaydi. Qadah bu zamon, hayot, hayotga muhabbat va dabdaba timsoli bo'lib, shoirning uni qanoat toshidan o'yib yasagani ifodani nihoyatda go'zal, jo'shqin va ta'sirli qilgan.

Shoirning istiora san'atidan foydalanish mahoratini quyidagi misralarda kuzatish mumkin:

Фунчаем, аммо ба олам рози мо гул кардааст,

Пур бувад мағзи чахон ҳамчун ҳаво аз бўй мо (129:44).

Гарди хомӯшӣ нагардад пардапӯши рози мо,

Сурма бигрезад чу дуд аз шўълаи овози мо (129:45).

Mubolag'a. Bu shे'riy san'at adabiyotdagi ma'lum va mashhur san'at turlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslar uni asosan ikki guruhga ajratadilar: oddiy va murakkab. Mubolag'aning har ikki turimi ham Shavkat Buxoroiy ijodida kuzatish mumkin. Shoир deyarli har bir g'azalida oddiy mubolag'adan foydalanadi. Bu holat lirik qahramonning kayfiyati, tabiatning go'zal manzaralari, oshiqning iztirobli holati kabilarni tasvirlashda ko'proq namoyon bo'ladi. Ba'zan shoir o'z holati, lirik qahramonining maqtov va ta'rifiga shunchalik ixlos qo'yadiki, so'zlari nihoyatda murakkab mubolag'a shaklini oladi:

Чунон кардам зи сели ашки худ сероб сахропо,

Ки хор аз сабзии худ то гули дасторҳо омад (131:106)

Shoir bu baytda ma'shuqaning shafqatsizligi tufayli yuzaga kelgan og'ir ahvolni odatdagidan ko'ra bo'rttiribroq tasvirlaydi. Maydonni sevgi bilan to'ldirish

mumkin bo'lmasa-da, bechora oshiqning ahvoli, shoir ifodasi bu ishni ishonarli va haqiqatga yaqin qiladi. Garchi inson aqli bu holatga ishonmasa ham, nozik qalb inson buni oddiy me'yor sifatida qabul qiladi.

Shoirning mubolag' alari ba'zan ishqning haddi a'losini tasvirlab, mantiqiy munozara va mulohaza qabul qilmaydigan haqiqat doirasidan chiqib ketadi:

Рафтӣ ва беруҳат асари анҷуман намонд,

Рангам чунон парид, ки хун дар бадан намонд (131:307).

Oshiq o'z ahvolini yorning yordamisiz tasavvur qila olmaydi, Usiz hayotning hech qanday qiymati yo'q. Shu sababli sevgilisi uni bir muddat tark etganda behisob nola-fig'on chekadi. Shoir bu holatni ishonish mumkin bo'limgan darajada mubolag'ali ifodalaydi. Rang o'zgarishiga ishonish mumkin, ammo tanada qon yo'qligi hayot mantig'iga to'g'ri kelmaydi. Muallif lirik qahramon holatini so'z ma'nolari qatiga yashirib tasvirlaydi. Ta'kidlaganimizdek, shoir uslubi ham shu holatga mos keladi.

Ba'zan Shavkat Buxoroiy yaratgan obrazlar g'uluvdan o'tib, ifrot darajasidan chiqib, haddan oshib ketadi:

Гарчи бо сар аст моро нисбати ҳамхонагӣ,

Хонае тангтар аз ҷашми сӯзан дорем мо (131:126).

Хостам дӯш, ки аз худ ба суроғи ту равам,

Пой ман гарм чунон гашт, ки домонро сӯхт (131:79).

Tazod. Shavkat Buxoroiy hayoti keskin qarama-qarshilik yuzaga kelgan zamon va muhitda o'tgan. Shuning uchun ham hayotsevar shoir o'z she'rлarida tazod san'atiga ko'p murojaat qilgan. Bu san'at shoir she'rлarining aksariyat misralarida uchraydigan badiiy tasvir vositasi sifatida mohirlilik bilan qo'llangan:

Ба оламе, ки манам, меҳру маҳ яке бошад,

Ба дида рутбаи дарвешу шах яке бошад.

Бувад ба кори сухандон ҳалал чӣ рӯзу чӣ шаб,

Ба хома мўи сафеду сиёҳ яке бошад¹⁸

Yuqoridagi misralar dualistik mazmun kasb etib, darvesh va podshoh, kecha-kunduz, oq-qora ifodalari o’zaro kontrast qo’yilgan. Ikkinchisi baytdagi kecha-kunduz va oq-qora so’zlari yordamida esa kuchaytirilgan tazod san’ati yuzaga kelgan: oq – kunduz – yorug’lik, qora – tun – zulmat tushunchalari bir-biriga bog’langan. Ya’ni mutanosiblik san’ati orqali kecha va kunduz nafaqat bir-biriga qarama-qarshi, balki oq va qora, yorug’lik va zulmatga ham qarshi turadi.

Qarama-qarshilik va muvozanatsizliklar hayotning barcha sohalarida mayjud. Shu bois Shavkat Buxoroiy o’z hayotining turli lahzalarini, ichki tuyg’ularini tasvirlashda ham undan keng foydalanadi. Bu shoirning badiiy maqsadini to’liq va samarali ifodalash imkonini beradi.

Tavsif. Shavkat Buxoroiyning yuksak shoirlik mahorati uning turli badiiy tasvirlardan keng foydalanishida yaqqol ko’zga tashlanadi. Shoir ma’shuq va oshiq, lirik qahramon holatining alohida lahzalarini, manzara va turli voqealarni tasvirlashda tavsif san’atidan mohirona foydalangan. Shavkat Buxoroiy oshiq va ma’shuqning uchrashgan joyini tasvirlar ekan albatta, o’z lirik qahramoni ahvoldidan kelib chiqqan holda go’zal manzaralarni chizadi:

Ҳаво латифу маяш софу маҳтоб шаби васл,

Ба маҳтоби ман офтоб роҳ надорад¹⁹.

Shavkat Buxoroiy tomonidan yaratilgan oshiq obrazni sevgilisi bilan oy charaqlab turgan oydin kechada, havo yoqimli bo’lgan vaqtida uchrashishni istaydi. Bunday go’zal manzara oshiqning holati bilan parallel ifodalananadi. Shoir ma’shuqa siymosini shunday yuksak mahorat bilan tasvirlaydiki, quyosh unga oshiq, uning nozikligi, joziba va go’zalligi oyning hasadini keltiradi. Agar u oy bo’lsa, quyosh uning vasliga yo’l izlaydi.

¹⁸ Шавкат Бухорӣ. Девони ашъор. Матни илмий-интиқодӣ. Бо тасхех ва муқаддима. Чобулқо Додалишоев. – Душанбе: Дониш, 1987. – 634 с.

¹⁹ Шавкат Бухорӣ. Девони ашъор. Матни илмий-интиқодӣ. Бо тасхех ва муқаддима. Чобулқо Додалишоев. – Душанбе: Дониш, 1987. – 634 с.

Talmeh. Shavkat Buxoroiy she'riyatida boshqa san'atlarga qaraganda talmeh san'ati ko'proq qo'llanilganini kuzatish mumkin. Bu san'atdan foydalanish shoir uchun o'z maqsadini aniq va ishtiyoy bilan ifodalash vositasi edi. Shavkat Buxoroiyning talmehlarida asosan tarixiy-mifologik voqealar, diniy hikoyat va rivoyatlar, tarixiy va afsonaviy shaxslar haqida so'z boradi. Bu holat, bir tomonidan, shoirning fikr va mulohazalarini aniq va to'liq ifodalashga xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, shoir maqsadlarini majoziy, murakkab va mazmunli tasvirlash imkonini beradi:

Биёбоне, ки аз хуснаш тачаллизор мегардад,

Яди байзо кунад мўраш кафи дasti Сулаймонро²⁰

Baytda shunday mazmun va ma'no yashiringanki, "yodi bayzo", "chumoli", "Sulaymonning kafti" singari ifodalar mohiyatini bilmay turib shoir maqsadini tushunish nihoyatda qiyindir. Bayt mazmunini anglash uchun kitobxon, avvalo, biz keltirgan so'z va iboralarining ma'nolarini bilishi kerak. Bu, bir tomonidan, she'rning badiiy-g'oyaviy ahamiyatining to'la-to'kis bo'lishiga, ikkinchi tomonidan, uning tarbiyaviy-axloqiy jihatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

